

2025 YILGI XUSUSIYLASHTIRISH
DASTURI QABUL QILINDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 21
apreldagi "2025 yil uchun xususiylashtirish dasturi
to'g'risida"gi Farmoni imzolandi.

Davomi → 2-betda



Международное сотрудничество

МЕЖДУНАРОДНЫЙ БИЗНЕС-ФОРУМ
В ДЖИЗАКСКОЙ ОБЛАСТИ

Продолжение → 9 стр.

#33 (3227) 24.04.2025

ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ГАЗЕТА / IQTISODIY GAZETA

BIZNES DAILY BIRJA

GAZETA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT AKTIVLARINI BOSHQARISH AGENTLIGI KO'MAGI BILAN CHOP ETILADI

WWW.BUSINESSDAILY.UZ

Elektrotexnika sanoatidagi rejalar taqdimot qilindi



Prezident Shavkat Mirziyoyev 22 aprel kuni elektrotexnika sohasida
joriy yil birinchi chorakda qilingan ishlar va navbatdagi vazifalarga
oid taqdimot bilan tanishdi.

Bu tarmoq mamlakatimiz sanoatining drayverlaridan biri. So'nggi yetti yilda eksport hajmi 7 barobarga o'sgan va geografiasini 63 ta davlatga yetgan. Hozirgi kunda tarmoqda 500 ga yaqin korxona bo'lib, ularda 27 mingdan ziyod yurtdoshimiz ishlamoqda.

Ushbu salohiyatni oshirish maqsadida shu yil 22 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Elektrotexnika sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Unga mu-

vofiq, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish, investitsiyalar va xorijiy brendlarni jalb etish, tajriba-konstruktorlik ishlarini rivojlantirish choralari ko'rilmog'qa.

Joriy yil birinchi chorakda tarmoqda ishlab chiqarish hajmi 7 trillion so'mdan oshgan. Qariyb 310 million dollarlik mahsulot eksport qilinib, bu ko'rsatkich 1,3 barobar o'sgan.

Shu davrda 55 million dollar investitsiya o'zlashtirilgan. Shun-

dan 48 million dollari to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlardir.

Xorijiy brendlar ostida xaridor-gir mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha umumiy qiymati 900 million dollarga teng loyihalar shakllantirildi. Ayni paytda texnik jarayonlarni kelishish, zarur texnologiyalarni yo'lga qo'yish bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

Taqdimotda ikkinchi chorakka va yil yakunigacha mo'ljallangan asosiy rejalar ham aytib o'tildi.



Joriy yilda ishlab chiqarish hajmini 43 trillion so'mga yetkazish, qariyb 5 trillion so'mlik mahsulotlarni mahalliyashtirish ko'zda tutilgan. Umumiy qiymati 656 million dollarlik 71 ta loyihani amalga oshirib, 4 ming 600 ta ish o'rni ochish mo'ljallangan. Eksport miqdori 1 milliard 700 million dollarga, geografiasini 68 ta mamlakatga yetishi kutilmoqda.

Davlatimiz rahbari dunyodagi iqtisodiy tebranishlar sharoitida elektrotexnika sanoatida ham rivojlanish trayektoriasini to'g'ri tanlab, bozor talablariga tez moslashish muhimligini ta'kidladi. Mahalliyashtirishni chuqurlashtirib, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar olish, zamonaviy texnologiyalarga munosib malakali kadrlar tayyorlash zarurligi qayd etildi.

Mutasaddilarga tarmoqdagi har bir korxona bilan ishlab, sanoat va logistika zanjirlarida yuzaga keladigan masalalarni hal etish, eksport geografiasini diversifikatsiya qilib, yangi bozorlar topish bo'yicha topshiriqlar berildi.

Investitsiya sohasidagi natijalar bo'yicha axborot berildi

Davlatimiz rahbariga investitsiya sohasida joriy yil birinchi chorakda qilingan ishlar hamda navbatdagi asosiy vazifalar bo'yicha axborot berildi.



Davlatimizning faol tashqi siyosati va qulay ishbilarmonlik muhiti natijasida investitsiyalar hajmi izchil o'sib bormoqda. Xususan, joriy yil birinchi chorakda 8 milliard 700

million dollardan ziyod xorijiy investitsiyalar o'zlashtirilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan qariyb 20 foizga o'sdi.

Bu mablag'lar evaziga energetika, metallurgiya, kimyo, farmatsevtika, transport, qishloq va suv xo'jaligi, kommunal va ijtimoiy sohalarida ko'plab muhim loyihalar amalga oshirilmoqda. Bunda qo'shilgan qiymat va ish o'rinlari yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Birinchi yarim yillik yakuni bilan 18 milliard dollardan ziyod xorijiy investitsiyalar o'zlashtirilishi kutilmoqda. Umuman, 2025 yilda 42 milliard dollar xorijiy investitsiya jalb etilishi, 81 ta yirik, 8 mingdan ortiq o'rta va kichik loyihalar amalga oshirilishi ko'zda tutilgan.

Mutasaddilarga har bir loyiha bo'yicha manzilli ishlab, barcha vazirlik, hokimlik va tarmoq rahbarlarini jalb qilib, tegishli masalalarni o'z vaqtida hal etib borish yuzasidan ko'rsatmalar berildi.

Hozirgi kunda dunyoda yuz berayotgan iqtisodiy tebranishlar sharoitida har bir investor bilan yaqindan ishlab,



xorijiy sarmoyalar samaradorligini oshirish zarurligi ta'kidlandi. Eng asosiysi - yangi investitsiya loyihalarini tezroq ishga tushirib, sanoat tarmoqlarini rivojlantirish va diversifikatsiya qilish hamda yuqori daromadli ish o'rinlarini yaratish muhimligi qayd etildi.

Жараён

Maqsad tadbirkorlarning
vaqti va mablag'ini tejash

→ 3-betda



Международное сотрудничество

Встреча с делегацией
Королевства Саудовской
Аравии

→ 9 стр.



ОТДЕЛ
РЕКЛАМЫ

РЕКЛАМА
VA E'LONLAR
BO'LIMI

+998 (99) 353-55-54



telegram
BIZNES DAILY BIRJA

2025 yilgi xususiylashtirish dasturi qabul qilindi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 21 apreldagi "2025 yil uchun xususiylashtirish dasturi to'g'risida"gi Farmoni imzolandi.

Farmon bilan birinchidan, quyidagilar tasdiqlanmoqda:

- 115 ta korxonadagi davlat aksiya paketlari (ulushlari) ommaviy savdolariga chiqariladi.
- 659 ta ko'chmas mulk obyekti ommaviy savdolariga chiqariladi.
- 6100 gektar yer uchastkalari auktsion savdolariga chiqariladi.
- 30 ta asosiy turdagi foydali qazilma kon va uchastkalari qazib olish uchun foydalanish huquqi elektron onlayn-auktsion savdolariga chiqariladi.

Ikkinchidan, davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini qisqartirish maqsadida quyidagilar belgilanmoqda:

- 2030 yil 1 yanvarga qadar davlat ishtirokidagi korxonalarni (mudofaa va xavfsizlik bilan bog'liq korxonalar hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno) tashkil etishga moratoriy joriy qilinadi.
- respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan ko'chmas mulk sotib olish, davlat funksiyasiga va davlat mulkiga egalik qilish mezonlariga mos bo'lmagan korxonalarni tashkil etish tashabbusi bilan chiqishga yo'l qo'yilmaydi.
- bozorlar va savdo majmualari ustav kapitalida mahalliy davlat hokimiyati organlarining majburiy ishtirok etishi to'g'risidagi talab bekor qilinadi.
- 2025 yil 1 mayga qadar vazirlik va idoralar rahbarlarining xususiylashtirish va davlat-xususi sheriklik masalalari bilan shaxsan shug'ullanadigan o'rinbosarlari ro'yxati tasdiqlanadi.

Uchinchidan, xususiylashtirish va davlat mulkini ijaraga olish bo'yicha quyidagi imtiyozlar belgilanmoqda:

- maydoni 10 ming kv.m.gacha bo'lgan davlat mulki obyektlari Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartib asosida yuqori texnologiyali mahsulot ishlab chiqaradigan tadbirkorlik subyektlariga 5 yil muddatga to'g'ridan to'g'ri tekin foydalanishga beriladi hamda shartnoma shartlari bajarilgan taqdirda ushbu tadbirkorlik subyektlariga baholangan qiymatda to'g'ridan to'g'ri sotiladi.



- boshlang'ich narxini bosqichma-bosqich pasaytirish mexanizmi qo'llangandan keyin ham bir yildan ortiq muddatda sotilmagan va xaridorlar uchun jozibador bo'lmagan ko'chmas mulk obyektlari boshqa yuridik shaxslarning ustav kapitaliga ulush sifatida kiritiladi.

To'rtinchidan, yer uchastkalari sotilishini jadallashtirish maqsadida quyidagilar belgilanmoqda:

- ochiq elektron onlayn auktsion savdolari orqali ijara huquqi asosida sotib olingan qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalari (agar ular realizatsiya qilinganidan keyin tasdiqlangan bosh reja, aholi punktlari qismlarini batafsil rejalashtirish loyihalari yoki hududlarni kompleks rivojlantirish va rejalashtirish bo'yicha boshqa hujjatlarga muvofiq bo'lsa va yer ijara shartnomasida boshqa shartlar nazarda tutilmagan bo'lsa) to'lovlar to'liq to'langanidan so'ng O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va (yoki) yuridik shaxslari tomonidan xususiylashtirilishiga yo'l qo'yiladi.
- mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan elektron onlayn auktsion savdolariga chiqariladigan yer uchastkalari, ustuvor ravishda, faoliyatini kengaytirish istagida va tayyor loyihasi bo'lgan tadbirkorlik subyektlari taklif bildirgan joylardan tanlanadi.

- elektron onlayn auktsion savdolarida turgan maydoni kichik bo'lgan yonma-yon turgan yer uchastkalari shaharsozlik normalaridan kelib chiqqan holda birlashtirilib, qo'shimcha kelishuvlarsiz qayta auktsion savdolariga chiqariladi.

Beshinchidan, davlat mulkini ijaraga berish tartibini takomillashtirish maqsadida quyidagilar belgilanmoqda:

- ijara shartnomasi tuzilgan kundan boshlab ijara oluvchi tomonidan yillik ijara to'lovlari bir oy davomida to'langan taqdirda, unga yillik ijara summasidan mazkur shartnoma tuzilgan sanadagi Markaziy bankning asosiy stavkasi miqdorida chegirma beriladi (bundan chegirma qo'llamaslik sharti bilan ijaraga berilgan, bir yildan kam muddatga tuzilgan va boshqa imtiyozlar qo'llangan ijara shartnomalari mustasno).
- olti oy davomida elektron onlayn auktsion savdolarida ijaraga berilmagan obyektlarning boshlang'ich narxi 50 foiz pasaytirilgan qiymatda belgilanadi. Bunda, boshlang'ich narx pasaytirilganda ham ijaraga berilmasa, ushbu auktsion unda bir ishtirokchi qatnashgan taqdirda ham, istisno tariqasida, o'tkazilgan deb hisoblanadi.
- Toshkent va Nukus shaharlari, viloyatlar, tuman va shahar markazlaridagi

davlat tashkilotlari va davlat ishtirokidagi korxonalar ma'muriy binolarining birinchi qavati bo'shatilib, elektron onlayn auktsion orqali tadbirkorlik subyektlariga savdo va servis obyektlarini tashkil etish uchun ijaraga beriladi.

Oltinchidan, davlat mulkini boshqarish va sotish tartibini takomillashtirish maqsadida quyidagilar belgilanmoqda:

- Savdo-sanoat palatasining hududiy bo'linmalari hamda mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman (shahar) hokimlarining yordamchilari arizasi asosida sotilgan bo'sh turgan davlat ko'chmas mulk obyektlarini sotishdan tushgan mablag'larning boshlang'ich narxidan oshgan qismining 10 foizi tegishli Savdo-sanoat palatasiga yoki hokim yordamchilarini rag'batlantirish uchun tegishli jamg'armaga va obyekt joylashgan mahalla fuqarolar yig'iniga teng ulushlarda o'tkazib beriladi.
- ommaviy savdolarida ikki oydan ortiq muddatda sotilmagan davlat ko'chmas mulk obyektlarini (Toshkent va Nukus shaharlari, viloyatlar markazlaridagi obyektlar bundan mustasno) sotishni jadallashtirish maqsadida, "E-auktsion" elektron savdo platformasida akkreditatsiyadan o'tgan rieltorlik tashkilotlari Davaktiv agentligi tomonidan xizmat ko'rsatish shartnomasi asosida jalb etiladi.
- davlat ulushlari xususiylashtirishning kamida 2 ta usulidan foydalangan-da ham olti oy muddat davomida sotilmagan taqdirda, xususiylashtirish sohasidagi vakolatli davlat organining qaroriga ko'ra aksiyadorlar (ishtirokchilar) ro'yxatidan chiqish yoki tugatish tashabbusi bilan chiqiladi.
- davlat mulkini xususiylashtirish dasturi qabul qilingan kundan e'tiboran xususiylashtiriladigan davlat mulkini boshqa shaxsga o'tkazish, hisobdan chiqarish, garovga qo'yish yoki boshqacha tarzda tasarruf etish, ularni xatlash va majburiy realizatsiya qilish taqiqlanadi.
- 2025 yil 1 oktyabrdan boshlab egasiz ko'chmas mulk obyektlarini davlat mulki obyekti sifatida davlat ro'yxatiga olish bo'yicha murojaatlar tegishli sudga Davlat aktivlari agentligi tomonidan kiritiladi.

Ishbilarmonlik faolligi indeksi sezilarli darajada ortmoqda

Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi tomonidan baholangan ishbilarmonlik faolligi indeksi (IFI) joriy yil mart oyida 1190 birlikni tashkil etib, fevral oyiga nisbatan 19 foizga hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 29,2 foizga oshgan.

Bu holat bir qator o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lgan. Ya'ni bunda xo'jalik yurituvchi subyektlarning bank hisobvraqalaridagi opreatsiyalari soni 3,0 foizga kamaygan. Tovar-xom ashyo birjasida xom ashyo sotib olish jadalligi 47,8 foizga ortgan. Faoliyat ko'rsatayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlar bo'yicha komponent 4,6 foizga oshgan, tovar belgilari bo'yicha komponent 3,7 foizga kamaygan.

Hududlar kesimida Sirdaryo viloyatida eng yuqori o'sish sur'ati qayd etilgan. Ishbilarmonlik faolligi indeksi barcha hududda o'tgan oyga nisbatan o'sishi kuzatilgan. Jumladan, Sirdaryo (45,5 foiz), Andijon (42,8 foiz), Qashqadaryo (42,2 foiz), Jizzax (41,1 foiz) va Buxoro (40,4 foiz) viloyatlarida sezilarli darajada o'sish kuzatilgan.

Mart oyida banklararo to'lov operatsiyalari soni 5 923,8 ming tani tashkil etdi va fevral oyiga nisbatan 184,4 ming tranzaksiyaga (3 foiz) kamaygan.



Banklararo to'lov operatsiyalari soni o'tgan oyga nisbatan 9 ta hududda kamaygan. Respublikaning 5 ta hududida yuridik shaxslar o'rtasidagi bank operatsiyalari soni o'tgan oyga nisbatan ortgan. Xususan, Sirdaryo (7,0 foiz), Andijon (4,4 foiz) va Buxoro (3,0 foiz) viloyatlarida o'sish kuzatilgan. Shuningdek, ushbu ko'rsatkich Farg'ona (7,2 foiz), Surxondaryo (7,1 foiz) viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida (4,1 foiz) kamaygan.

Joriy yilning mart oyida IFIning birja komponenti 1,4786 birlikni tashkil etdi. Bu esa, ushbu komponentning o'tgan oyga nisbatan 47,8 foizga oshganini anglatib, har bir bitim bo'yicha sotib olingan tovarlarning o'rtacha hajmi 12,5 foizga kamaygani va tuzilgan bitimlar soni 2,1 marta ortganligi bilan izohlanadi. Respublika tovar-xom ashyo birjasida tovarlar savdosining umumiy aylanmasi hajmi mart oyida 7 389,1 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan oyga nisbatan 9,8 foizga ortgan.

Faoliyat yuritayotgan xo'jalik subyektlari bo'yicha komponent mart oyida 1,0460 birlikni tashkil etib, o'tgan oyga nisbatan 4,6 foizga ortgan. Shuningdek, ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6,2 foizga oshgan. Mart oyida barcha turdagi faoliyat yuritayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlar soni o'tgan oyga (466 181 birlik) nisbatan 3 115 birlikka ortib, 469 296 birlikni tashkil etgan. Yirik tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi korxonalar soni esa 642 taga oshgan. Hisobot davrida kichik korxonalar soni 370 364 tadan 372 887 taga ortgan (o'sish 2 523 ta). Shuningdek, fermer xo'jaliklari soni 91 775 tadan 91 725 tagacha (-50 ta) kamaygan. Yirik tadbirkorlik bilan shug'ullanayotgan subyektlar soni 4 684 tani tashkil etib, fevral oyiga nisbatan 642 taga oshgan.

Mart oyida savdo belgilari muhofazasi bo'yicha indeks 0,9631 birlikni tashkil etib, ushbu ko'rsatkich fevral oyiga nisbatan 3,7 foizga kamaygan. Shuningdek, yuridik shaxslar tomonidan 339 ta tovar belgisi va tovar nomi ro'yxatga olingan.

Davlat moliyasini boshqarishda yangi vazifalar

Tahlillarga qaraganda, davlat moliyasini boshqarishdagi islohotlar va erishilgan natijalarga qaramasdan, sohani yanada takomillashtirishni talab etadigan bir qator ustuvor yo'nalishlar mavjud.

Budjet intizomini ta'minlash mexanizmlarini kuchaytirish, o'rta muddatli budjetlashtirishda strategik ustuvorlikni ta'minlash, davlat xarajatlari va investitsiyalarining natijadorligini oshirish, budjetning samarali ijrosini ta'minlash, fiskal axborot sifati va hisobdorlikni yanada oshirish shular qatoriga kiradi.

Shu boisdan 2025-2030 yillarda O'zbekiston Respublikasining davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasida ayni shu yo'nalishlardagi vazifalar alohida ko'rsatib o'tildi. Davlat moliyasini boshqarish sohasidagi islohotlarni tizimlashtirish, budjet barqarorligini ta'minlash va intizomini kuchaytirish orqali budjet taqchilligini qisqartirib borish, budjet ochiqqligini ta'minlash, soliq ma'murchiligini yaxshilash va uning samaradorligini yanada oshirish, budjet xarajatlari natijadorligiga erishish, davlat qarzini makroiqtisodiy xavfsiz darajada ushlab turish va davlat budjeti likvidligini oshirish strategiyaning asosiy maqsadlari hisoblanadi. Budjet intizomini ta'minlash, budjet xarajatlari natijadorligiga erishish, davlat moliyasini boshqarish sohasidagi islohotlarni tizimlashtirish, shuningdek, budjet barqarorligini ta'minlash orqali budjet taqchilligini qisqartirib borish asosiy chora-tadbirlar sanaladi. Budjet intizomi davlat moliyasining o'rta muddatli istiqbolida barqaror bo'lishini ta'minlashga yordam beradi, shuningdek, mamlakatimizning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish maqsadlariga erishish hamda fuqarolarga sifatli davlat xizmatlarini ko'rsatishning muhim shartlaridan biridir. Makroiqtisodiy prognozlash modellari va vositalarini kengaytirish hamda tahliliy salohiyatni oshirish iqtisodiy ko'rsatkichlar hamda soliq va budjet siyosati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni keng miqyosda o'rganishga yordam beradi. Bu esa, o'z navbatida, makrofiskal prognozlarni ishlab chiqish va budjetni shakllantirish jarayonlarini takomillashtirishga hissa qo'shadi. Fiskal xatarlarni boshqarish makrofiskal, jumladan, davlat-xususiy sheriklik (DXSH) loyihalari bo'yicha xatarlar va ularning budjetga ta'sirini turli ssenariylarda tahlil qilish va bu borada kadrlar salohiyatini oshirish

hamda makrofiskal xatarlar to'g'risidagi ma'lumotlar ochiqqligini ta'minlash orqali yanada takomillashtiriladi. Davlat qarzini samarali boshqarishning maqsadi davlat qarzini makroiqtisodiy barqarorlik uchun xavfsiz darajada saqlash, davlat budjeti taqchilligini moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, samarali investitsiya loyihalarini moliyalashtirish hamda davlat qarzig'a to'liq va o'z vaqtida xizmat ko'rsatilishini ta'minlashdan iborat. Shuningdek, davlat qarzi bo'yicha hisobdorlik oshiriladi, mablag'lar jalb qilish manbalarini diversifikatsiya qilish va davlat qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish bo'yicha muhim choralar ko'riladi. Davlat qimmatli qog'ozlarini joylashtirish to'g'risidagi kalendarni e'lon qilish hamda likvidlik va foiz stavkalari bilan bog'liq xatarlarni kamaytirish maqsadida davlat qimmatli qog'ozlar bozorini takomillashtirishni o'z ichiga olgan va uch yilga mo'ljallangan davlat qarzini boshqarish strategiyasini ishlab chiqish amaliyoti yo'lga qo'yiladi. Davlat qarzini boshqarish bo'yicha o'rta muddatli strategiya chop etilib, har yili yangilanib boriladi hamda fiskal strategiya bilan birga tasdiqlanadi. Natijadorlik davlat qarzini boshqarishning o'rta muddatli strategiyasi ishlab chiqilishi va e'lon qilinishi (PEFA baholash uslubiyotining 13.3-bandi) bilan baholanadi. Strategiyaga ko'ra, o'rta muddatga mo'ljallangan budjetni shakllantirishda milliy va tarmoqlarga tegishli strategik rejalarni inobatga olinishini tartibga soluvchi islohotlarni o'z ichiga olgan. Belgilangan islohotlarning amalga oshirilishi orqali budjet jarayonida strategik rejalashtirish tamoyilini amaliyotga joriy qilish ko'zlangan. Shuningdek, 2026 yildan boshlab vaqtincha xarajatlar smetasini tuzish tartibi bekor qilinadi. Bunda 2025 yil



uchun budjet tashkilotlarining va budjet mablag'lari oluvchilarning vaqtincha xarajatlar smetalari yanvar oyi uchun tuziladi hamda fiskal strategiya va strategik ustuvor yo'nalishlarni muhokama qilish jarayoni kengaytiriladi. Budjet so'rovlarini va moliya yili davomida taqdim etiladigan barcha yangi loyihalarni (normativ-huquqiy hujjat loyihalari) moliyaviy baholash, shuningdek, ularning milliy strategik maqsadlar hamda tegishli vazirlik va idoralarning (sohalarining) mavjud strategiyalari bilan o'zaro muvofiqligini o'rganish tartibga solinadi. Budjet dasturlari va ular bilan bog'liq samaradorlik ko'rsatkichlari mamlakatimizning ustuvor strategik maqsadlarini o'zida ifodalashini nazarda tutgan holda, bosqichma-bosqich to'liq dasturiy budjetlashtirish tizimi joriy etiladi. Davlat investitsiyalarini boshqarish tartiblari ishlab chiqilishi investitsiya loyihalari samaradorligini

va hisobdorlikni oshirishga xizmat qiladi. Amaldagi davlat investitsiyalarini boshqarish jarayonini baholash va kelgusida ushbu tizimni takomillashtirish yuzasidan xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik qilinadi. Davlat investitsiyalarini boshqarish va ularni budjet jarayoni bilan integratsiya qilishni takomillashtirish maqsadida budjetdan va tashqi manbalardan moliyalashtiriladigan investitsiya loyihalarini shakllantirish bo'yicha reglamentlar muvofiqlashtiriladi. "Kapital qo'yimlar" elektron platformasining budjetdan moliyalashtiriladigan investitsiya loyihalarini shakllantirish va baholash bosqichlarini qamrab olish bo'yicha funksional imkoniyatlari kengaytiriladi. Investitsiya loyihalari taklifi ishlab chiqilganda, ularni saqlash va ekspluatatsiya xarajatlari yagona uslubiyot asosida baholanib, tegishli tartibda o'rta muddatli budjet loyihasi inobatga olinishi ta'minlanadi.

Bahodirjon MAMATXONOV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Budjet va iqtisodiy masalalar qo'mitasi a'zosi.

Maqsad tadbirkorlarning vaqti va mablag'ini tejash

Ma'lumki, bugungi kunda soliq organlarining soliq to'lovchilar bilan bog'liq barcha nizolari ma'muriy sudlar tomonidan ko'rib chiqiladi.

Jumladan, soliqqa oid huquqbuzarliklar bo'yicha soliq organi tomonidan tadbirkorlik subyektining banklardagi hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turishning amaldagi tartibiga ko'ra, bankdagi hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni 10 kundan ko'p muddatga to'xtatib turish to'g'risidagi qaror sud tomonidan soliq organining iltimosnomasiga asosan qabul qilinishi mumkin. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, soliq to'lovchining bankdagi hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarining to'xtatib turilishi banklar tomonidan soliq to'lovchining barcha chiqim operatsiyalari to'xtatib turilishini anglatadi. Mazkur toifadagi huquqbuzarlik tadbirkorlik subyektini tomonidan tan olingan va e'tiroz bildirilmagan bo'lsada, uning bankdagi hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni 10 kundan ko'p bo'lgan muddatga to'xtatib turish faqatgina sudlar tomonidan



amalga oshirilishiga oid talablar soliq to'lovchilarga noqulayliklar keltirib chiqarmoqda. Chunki banklardagi hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turishga oid ishlar nazorat qiluvchi organ (soliq) va boshqa manfaatdor shaxslar ishtirokida ishni sud muhokamasiga tayyorlash to'g'risidagi ajrim chiqarilgan kundan e'tiboran o'n besh kundan ortiq bo'lmagan muddatda ko'rib chiqiladi. Bu holat tadbirkorlik subyektlarining vaqt va mablag' bilan bog'liq ortiqcha xarajatlariga, ularning sarsongarchiliklariga, ayrim hollarda jiddiy e'tirozlariga sabab bo'lmoqda.

Oliy sud ma'lumotiga ko'ra, iqtisodiy sudlar tomonidan 2022 yilda banklardagi hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turishga doir 156 873 ta ish ko'rilgan bo'lsa, shundan bor yo'g'i 157 tasi yoki 0,1 foizi ustidan shikoyat qilingan. 2023 yilda 136 529 ta ish ko'rilgan va shundan 88 tasi yoki 0,06 foizi ustidan shikoyat qilingan. 2024 yilda esa, ushbu toifa bo'yicha 297 345

ta ish ko'rib, 37 tasi yoki 0,012 foizi ustidan shikoyat tushgan. Mazkur tahlil tadbirkorlik subyektlarining vaqti va mablag'ini tejash maqsadida tadbirkorlik subyektini huquqbuzarliklarni tan olgan hamda e'tiroz bildirmagan taqdirda, uning bankdagi hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni soliq organi qarori asosida to'xtatib turish tartibini joriy etish zarurligini ko'rsatmoqda.

Shu munosabat bilan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi ishlab chiqilgan. Loyiha bilan Iqtisodiy protsessual kodeks hamda Soliq kodeksida soliq organi ishtirokidagi soliqqa oid nizolar ma'muriy sudlar tomonidan ko'rilishi, soliq to'lovchi - tadbirkorlik subyektini soliq huquqbuzarligini tan olgan hamda e'tiroz bildirmaganda, uning bankdagi hisobvaragi bo'yicha operatsiyalarni to'xtatish soliq organi qarori asosida amalga oshirilishi belgilanmoqda. Iqtisodiy protsessual kodeksi 26-moddasidan davlat soliq xizmati organlari ishtirokidagi soliqqa oid nizolar iqtisodiy sudlar yurisdiksiyasidan chiqarilmoqda. 135-moddasidan esa soliq qarzini undirishni yuridik shaxslar va fuqarolarning mol-mulkiga qaratish to'g'risida talab bildirilgan bo'lsa, sud buyrug'ini berish bo'yicha talablar chiqarib tashlanmoqda. Soliq kodeksining 111-moddasida soliq to'lovchi (soliq agenti) o'n kun muddatda o'zining shaxsiy kabineti orqali bankdagi hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turish to'g'risidagi qaror yuzasidan e'tiroz bildirmasa, soliq to'lovchining (soliq agentining) bankdagi hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalar avtomatik ravishda o'n kundan ko'p muddatga to'xtatilgan hisoblanishi, e'tiroz bildirilgan holatda esa masala ma'muriy sud tomonidan hal qilinishi qayd etilmoqda.

Qonun loyihasi yaqinda parlament quyi palatasi yalpi majlisida atroflicha muhokamadan o'tkazilib, konseptual jihatdan qabul qilindi. Ayni paytda deputatlar tomonidan bildirilgan takliflar asosida uni xalqaro standartlarga muvofiq takomillashtirish va yanada puxtalashtirish jarayoni davom etmoqda.



- Биржа савдолари натижалари

• Биржа бюллетенлари

• Котировкалар, листинглар

• Танлов ва тендерлар

• Қимматли қоғозлар бозори иштирокчиларининг муҳим фактлари

• Банкротлик

Тошкент туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 14 апрелдаги 4-1001-2528/12904-сонли ҳал қилув қарори билан **“1-Ko’priqurilish otryadi” MChJ** (СТИР 305127779) тўловга қобилиятсиз деб топилиб, тугатишга доир иш юритиш бошланган. Тугатиш бошқарувчиси этиб Талипов Мухиддин Нуриддин ўғли тайинланган.

Мазкур корхона бўйича кредиторлар йиғилиши 2025 йил 29 май куни соат 11.00 да Яккасарой тумани, А.Қаҳҳор 9-тор кўчаси, 1-уйнинг 315-хонасида бўлиб ўтади.

Йиғилишда тугатиш бошқарувчисининг тугатишга доир иш юритиш жараёнида амалга оширилаётган ишлари юзасидан ҳисоботи, кредиторлар талаблари реестрини тасдиқлаш, тугатиш режаси, штатлар жадвали ва харажатлар сметасини тасдиқлаш, тугатиш бошқарувчисига тўланадиган ҳақ миқдорини белгилаш, қарздорнинг молия-ҳўжалик фаолиятини аудит текширувидан ўтказиш юзасидан ҳамда мавжуд кўчар, кўчмас мулкларини баҳолаш юзасидан аудиторлик ва баҳоловчи ташкилотларни танлаб олиш, шунингдек қонунда кўзда тутилган бошқа масалалар кўриб чиқилади.

Кредиторларни рўйхатга олиш йиғилишдан 30 дақиқа олдин бошланади.

Кредиторлар томонидан билдирилган талаблар эълон чиққан кундан бошлаб 1 ой давомида Яккасарой тумани, А.Қаҳҳор 9-тор кўчаси, 1-уйнинг 315-хонасида қабул қилинади. Тел: (99) 846-62-02.

“1-Ko’priqurilish otryadi” MChJ тўловга қобилиятсиз деб топилганлиги сабабли уч кун муддат ичида думалоқ муҳр ва тўртбурчак тамгалар, низом, гувоҳномалар корхона раҳбарлари ёки таъсисчилари томонидан тугатиш бошқарувчисига топширилмаса, йўқолган деб топилиб бекор қилинган ҳисобланади.

Марғилон туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 18 апрелдаги 4-1504-2502/6599-сонли ажрими билан Марғилон шаҳрида жойлашган **“ABIK trading impex” МЧЖ**га (СТИР 305995222) нисбатан тўловга қобилиятсизликнинг қузатув таомили жорий қилинган ва муваққат бошқарувчи этиб Т.А.Искандаров тайинланган. Мазкур иш юзасидан суд мажлиси 2025 йил 30 май куни соат 14.30 да Марғилон шаҳри, Нурафшон кўчаси, 7-уйда жойлашган суд биносида ўтказилади. Кредиторларнинг биринчи йиғилиши 2025 йил 26 майда соат 11.00 да Фарғона шаҳри, С.Аҳмад кўчаси, 48-а уйда ўтказилади. Мурожаат учун тел: (93) 202-00-66.

Бўстон туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 22 апрелдаги 44-1703-2502/1580-сонли ҳамда 4-1703-2502/1582-сонли ажримлари билан Андижон вилояти, Улғунор туманида жойлашган “Andijon Broller Sanoati” МЧЖ (СТИР 308465167) ва “Andijon Broller” ФХга (СТИР 304764881) нисбатан тўловга қобилиятсизликнинг қузатув таомили қўлланилган. Муваққат бошқарувчи этиб Ил-тоифали суд бошқарувчиси Усмонов Дилшодбек Иброхимович тайинланди. Мазкур ишлар бўйича суд муҳокамаси 2025 йил 20 июнь куни соат 10.00 ва 10.20 да Бўстон туманлараро иқтисодий суди биносида ўтказилади.

Қарздор корхоналар кредиторларининг йиғилиши 2025 йил 17 июнь куни соат 10.00 ва 11.00 да Андижон шаҳар, А.Фитрат кўчаси, 214-а уйда ўтказилади. Рўйхатга олиш 09.55 да тўхтатилади.

Қўн тартибидаги масалалар:

1. Бўстон туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 22 апрелдаги ажримларини маълумот ва ижро учун қабул қилиш.

2. Кузатув жараёни юзасидан муваққат бошқарувчининг ҳисоботлари.

3. Қарздор кредиторлари реестрини тасдиқлаш.

4. Корхона фаолиятида сохта банкротлик аломатларини аниқлаш юзасидан тузилган хулосани тасдиқлаш.

5. Муваққат бошқарувчига ойлик иш ҳақи белгилаш.

6. Қарздорга нисбатан тўловга қобилиятсизлик таомилларидан бирини қўллаш.

7. Тўловга қобилиятсизликнинг кейинги таомили учун суд бошқарувчиси номзодини кўрсатиш.
- Йиғилиш қатнашчиларини рўйхатга олиш соат 09.30 да бошланади. Кредиторлар йиғилишида кўриб чиқиладиган масалалар билан йиғилиш куни соат 09.30 дан 10.00 гача танишиш мумкин. Кредиторлар вакиллари ушбу йиғилишда қарздорлик тўғрисида маълумот билан асосланган солиштирма далолатнома, кредиторлар реестрига киришти ҳақида ариза, шахсни тасдиқловчи ҳужжат ва ваколатнома билан қатнашишлари шарт.
- Барча ҳақдор ва қарздор хўжалик юритувчи субъектлар солиштирма далолатнома (асословчи ҳужжатлар) билан ваколатнома асосида кредиторлар йиғилишида қатнашишлари сўралади.
- Қарздорларга нисбатан талаблар ушбу эълон чиққан кундан бошлаб 1 (бир) ой давомида юқорида кўрсатилган манзилда қабул қилинади.
- Мурожаат учун телефон: + 99891-479-55-15.

Андижон туманлараро иқтисодий судининг 2024 йил 5 декабрдаги 4-1701-2403/3386-сонли ҳал қилув қарорига асосан **“Best impeks textil” МЧЖ** (СТИР 204604497) тўловга қобилиятсиз деб топилган ва тугатишга доир иш юритиш белгиланган.

Андижон туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 10 апрелдаги 4-1701-2403/3386-сонли ажримига асосан “Best impeks textil” МЧЖ тугатиш бошқарувчиси этиб 2-тоифали суд бошқарувчиси Олимов Баходир Одилжанович тайинланган.

“Best impeks textil” МЧЖ аудит текширувларини ва мол-мулкни баҳолаш ишларини амалша ошириш бўйича аудиторлик ва баҳоловчи ташкилотлар учун тендер/танлов эълон қилинади. Аудиторлик ва баҳоловчи ташкилотлардан ўз таклифларини эълон чиққан кундан бошлаб 10 кунлик муддатда тақдим этиш сўралади.

Мурожаат учун: Андижон шаҳар, А.Фитрат кўчаси, 214-а уй. Телефон: +99890-202-77-25.

Боёвут туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 9 апрелдаги 4-1203-2501/1431-сонли ажрими билан **“Boyovut galf cluster” МЧЖ** (СТИР 307846341) тўловга қобилиятсиз деб эътироф этилган ва қузатув таомили жорий этилган. Муваққат бошқарувчи этиб Б.Мавлянов тайинланган.

Қарздорлар томонидан эълон чиққанидан кейин 10 (ўн) кун муддат ичида муҳр, тўрт бурчак тамға, гувоҳнома, низом ва бошқа барча ҳужжатлар тугатиш бошқарувчисига топширилмаса, йўқолган деб топилиб, бекор қилинган ҳисобланади.

Кредиторлар ўз талабларини тақдим этишлари учун эълон чиққан кундан бошлаб 1 (бир) ой мобайнида мурожаат қилишлари мумкин.

Кредиторларнинг умумий йиғилиши 2025 йил 23 май куни соат 11.00 да Гулистон шаҳар, Ўзбекистон кўчаси, 3-уй (Бизнес маркази биноси) бўлиб ўтади.

Мазкур йиғилишга ишончли шахс ишончномаси, қарздорликни тасдиқловчи ҳужжат ҳамда паспорт билан келиши шарт.

Мурожаат учун: Гулистон шаҳри, 3-мавзе, Ўзбекистон кўчаси, 3-уй (Бизнес маркази биноси). Тел: (67) 226-53-18, моб: (90)-242-88-00.

ЭЪЛОН!

Фарғона вилояти, Қува туманида жойлашган қарздор **“Industry and Building Goods” MChJ** (СТИР 304994754) кредиторларининг 2025 йил 22 апрель кунги йиғилишида кворум бўлмаганлиги сабабли, “Тўловга қобилиятсизлик тўғрисида”ги қонунинг 12-моддасига асосан кредиторларнинг йиғилиши 2025 йил 2 май куни соат 10.00 га қолдирилди.

Манзил: Фарғона шаҳар, С.Темур кўчаси, 43-6 уй. Тел: +99894-130-17-33.

Қорақўл туманлараро иқтисодий судининг 2024 йил 10 июлдаги 2-2002-2401/767-сонли ҳал қилув қарори билан **“Buxoro Qorako'Ichilik markazi” масъулияти чекланган жамияти** тўловга қобилиятсиз деб топилган ва тугатишга доир иш юритиш бошланган. Суд (тугатиш) бошқарувчиси этиб О.Жўраев тайинланган.

Суднинг 2025 йил 22 октябрдаги ажрими билан қарздор “Buxoro Qorako'Ichilik markazi” масъулияти чекланган жамиятига нисбатан банкротликнинг соддалаштирилган таомили бекор қилинган ва умумий таомилга ўтказилган.

Суднинг 2025 йил 20 мартдаги ажрими билан “Buxoro Qorako'Ichilik markazi” масъулияти чекланган жамиятининг суд (тугатиш) бошқарувчиси О.Жўраев ўз аризасига асосан вазифасини бажаришдан озод қилинган ва А.Махмудов “Buxoro Qorako'Ichilik markazi” масъулияти чекланган жамиятининг тугатиш бошқарувчиси этиб тайинланган.

Мурожаат учун манзил: Бухоро шаҳар, Сувчилар кўчаси, 9-уй.

Суд (тугатиш) бошқарувчиси: Аҳмад Ўктамович Махмудов.

Тел: +99899-419-75-86, e-mail: ahmad_mahmudov@mail.ru.

Қорақўл туманлараро иқтисодий судининг 2024 йил 2 июлдаги 2-2002-2401/768-сонли ҳал қилув қарори билан **“Boltaev Sardor zamini” фермер хўжалиги** тўловга қобилиятсиз деб топилган ва тугатишга доир иш юритиш бошланган. Суд тугатиш бошқарувчиси этиб О.Жўраев тайинланган.

Суднинг 2025 йил 20 январдаги ажрими билан қарздор “Boltaev Sardor zamini” фермер хўжалигига нисбатан банкротликнинг соддалаштирилган таомили бекор қилинган ва умумий таомилга ўтказилган.

Суднинг 2025 йил 20 мартдаги ажрими билан “Boltaev Sardor zamini” фермер хўжалигининг тугатиш бошқарувчиси О.Жўраев ўз аризасига асосан вазифасини бажаришдан озод қилинган ва А.Махмудов “Boltaev Sardor zamini” фермер хўжалигининг тугатиш бошқарувчиси этиб тайинланган.

Мурожаат учун манзил: Бухоро шаҳар, Сувчилар кўчаси, 9-уй.

Суд (тугатиш) бошқарувчиси: Аҳмад Ўктамович Махмудов.

Тел: +99899-419-75-86, e-mail: ahmad_mahmudov@mail.ru.

№	СТИР	Корхона номи	Туман
1	306968389	“CAR4U” МЧЖ	Юнусобод

Тошкент туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 4 апрелдаги 4-1001-2528/32690-сонли ажримига асосан Тошкент шаҳар, Юнусобод туманидаги “CAR4U” МЧЖ тўловга қобилиятсиз деб эътироф этилиб, қузатувга доир иш юритиш бошланди. Муваққат бошқарувчи этиб Ж.Х.Санжаров тайинланди. Кредиторлар томонидан қўйиладиган барча талаблар бир ой муддат ичида қуйидаги почта манзилда қабул қилинади: индекс 100209, Тошкент шаҳар, Сергели тумани, Сергели 3-мавзеси, 30-а уй.

Мурожаат учун тел: +99894-759-00-10. Тўловга қобилиятсиз корхона “CAR4U” МЧЖ кредиторларининг биринчи йиғилиши 2025 йил 26 майда соат 11.00 да, Яшнобод туман СИ биносида бўлиб ўтиши белгиланган.

Дўстлик туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 11 апрелдаги 4-1304-2503/2663-сонли ажрими билан “Do'stlik inovatsion textil” МЧЖга нисбатан (СТИР 310376286) тўловга қобилиятсизликнинг қузатув тартиб-таомили жорий этилган.

Муваққат бошқарувчи этиб Равшанов Аҳмад Бобоқулович тайинланган.

Кредиторлар талаблари эълон чиққан кундан эътиборан 1 (бир) ой муддат ичида қабул қилинади. Кредиторларнинг биринчи йиғилиши 2025 йил 26 май куни соат 15.00да Жиззах шаҳар, Ш.Рашидов кўчаси, 63-уй, 5-қаватда ўтказилади.

Мурожаат учун манзил: Жиззах шаҳри, Ш.Рашидов кўчаси, 63-уй, 5-қават, тел:+99890-516-43-55. Эл.почта: sudboshqaruvchi.ahmad@mail.ru.

Беруний туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 16 апрелдаги 4-2302-2503/535, 4-2302-2503/537, 4-2302-2503/539, 4-2302-2503/543-сонли ҳал қилув қарорлари билан “Ellikqal'a green hous” МЧЖ, “Gavhar Yarmatova” МЧЖ, “Adhambek smoothness” МЧЖ, “Bo'ston techno gold” МЧЖ соддалаштирилган тартибда тўловга қобилиятсиз деб топилган ва тугатиш (суд) бошқарувчиси этиб Юсупов Мансурбек Янгбоевич тайинланган.

Юқорида номлари қайд қилинган юридик шахслар кредиторларининг биринчи йиғилиши 2025 йил 26 май куни соат 14:30 да Эллиққальа тумани солиқ инспекцияси биносида бўлиб ўтади.

Йиғилиш қўн тартиби:

1. Тугатиш бошқарувчисининг ҳисоботи.

2. Кредиторлар реестрини тасдиқлаш.

3. Бошқа масалалар.
- Мазкур юридик шахсларнинг тўртбурчак штампи ва думалоқ муҳрлари эълон чоп этилган кундан эътиборан 10 (ўн) кун ичида тугатиш бошқарувчисига топширилмаган тақдирда, йўқолган деб топилиб, бекор қилинган ҳисобланади. Кредиторлар талаблари мазкур эълон чоп этилган кундан бошлаб 1 (бир) ой давомида тугатиш бошқарувчиси томонидан қабул қилинади.
- Мурожаат учун тел: +99893-922-07-17.
- Манзил: Урганч тумани, Қипчоқ маҳалласи, Дилкаш кўчаси, 39-уй.

Қорақалпоғистон Республикаси Нукус туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 21 апрелдаги 4-2301-2502/262-сонли ҳал қилув қарори билан Хўжайли туманида рўйхатдан ўтган **“Midasiatex cluster” МЧЖ** (СТИР 307787320) тўловга қобилиятсиз деб топилиб тугатишга оид иш юритиш жорий қилинди. Тугатиш бошқарувчиси вазифасига суд бошқарувчиси Рўзметов Янгйбой Вафаевич (Аттестат: АА №000209) тайинланди.

Шу муносабат билан талаблар эълон чиққан кундан эътиборан 1 ой муддатда жамият тугатиш бошқарувчиси томонидан қабул қилинади.

Манзил: Хоразм вилояти, Урганч шаҳри, Амударё кўчаси, 9-а уй.

Мурожаат учун тел: +99899-454-4452.

Тошкент туманлараро иқтисодий судининг ажрими билан қуйидаги корхоналарга нисбатан тўловга қобилиятсизлик (банкротлик) тўғрисида иш қўзғатилиб, қузатув жорий қилинган. Муваққат бошқарувчи этиб Талипов Мухиддин Нуриддин ўғли тайинланган.

Мазкур қарздор корхоналар кредиторларининг биринчи йиғилиши 2025 йил 3 июнь куни Яккасарой тумани, А.Қаҳҳор 9-тор кўчаси, 1-уйнинг 315-хонасида бўлиб ўтади.

Биринчи кредиторлар йиғилишида “Тўловга қобилиятсизлик тўғрисида”ги қонуннинг 89-моддасида кўрсатиб ўтилган ҳамда ушбу қонунда назарда тутилган бошқа масалалар кўриб чиқилади.

Кредиторлар томонидан билдирилган талаблар эълон чиққан кундан бошлаб 1 ой давомида Яккасарой тумани, А.Қаҳҳор 9-тор кўчаси, 1-уйнинг 315-хонасида қабул қилинади. Тел: (99) 846-62-02.

№	СТИР	Корхона номи	Иқтисодий суднинг (ажрими, ҳал қилув қарори)нинг		Рўйхатга олиш вақти (соат)	Кредиторлар йиғилишининг вақти (соат)
			санаси	Рақами		
1	304820789	“Soft Bakery Products” MCHJ	22.04.2025 й.	№ 4-1001-2517/32833	10.30	11.00
2	205999195	“Pergament Quality Exclusive” МЧЖ	18.04.2025 й.	№ 4-1001-2517/38889	11.00	11.30

Наблюдательный совет АО «MULTICARD PAYMENT»

сообщает о проведении очередного годового общего собрания акционеров, которое состоится 15 мая 2025 года в 11.00, по адресу: город Ташкент, 100047, Яшнабадский район, улица Садика Азимова, дом 50.

ПОВЕСТКА ДНЯ:

1. Утверждение персонального состава счетной комиссии очередного годового общего собрания акционеров общества.
2. Утверждение регламента для проведения очередного годового общего собрания акционеров общества.
3. Утверждение отчета об итогах деятельности общества за 2024 финансовый год и отчет генерального директора общества об основных направлениях деятельности общества в 2025 году.
4. Рассмотрение заключения внешнего аудита по результатам деятельности общества в 2024 году.
5. Утверждение отчета наблюдательного совета общества о его деятельности в 2024 году.
6. Утверждение годового отчета общества на конец 2024 года, бухгалтерского баланса, отчета о прибылях и убытках.
7. Утверждение организационной структуры общества.
8. Продление полномочий генерального директора.
9. Утверждение порядка распределения чистой прибыли общества, полученной по итогам 2024 года.
10. Утверждение внешнего аудитора общества на 2025 год и определение максимального размера вознаграждения за его услуги.
11. Определение, утверждение и реализация перечня сделок и крупных сделок, которые могут быть заключены обществом с аффилированными лицами общества в ходе осуществления текущей деятельности общества в период до очередного годового общего собрания акционеров.
12. Утверждение устава АО «MULTICARD PAYMENT» в новой редакции.
13. Утверждение положения о наблюдательном совете общества (в новой редакции).

Дата составления реестра акционеров для оповещения о проведении общего собрания акционеров – 23 апреля 2025 года, а дата составления реестра акционеров Общества для проведения общего собрания акционеров – 11 мая 2025 года.

Наблюдательный совет общества просит всех акционеров иметь при себе документ подтверждающий личность, а их представителей иметь при себе документ подтверждающий личность и доверенность, оформленную на основании действующего законодательства.

Акционеры общества и их представители будут проходить регистрацию 15 мая 2025 года с 10 00.

С материалами по повестке дня для общего собрания акционеров АО «MULTICARD PAYMENT» можно ознакомиться: на сайте: www.corp.multicard.uz, а также в офисе Общества по адресу (г.Ташкент, улица С.Азимова 50.)

Телефон: +998 998604884, адрес электронной почты: yu.haliulina@multicard.uz

Наблюдательный совет АО «MULTICARD PAYMENT».

“MULTICARD PAYMENT” акциядорлик жамияти

кузатув кенгаши жамият акциядорларининг навбатдан ташқари умумий йиғилиши 2025 йил 15 май куни соат 11.00 да Тошкент шаҳри, Яшнобод тумани, Садик Азимов кўчаси, 50-уйда бўлиб ўтишини

маълум қилади

КУН ТАРТИБИ:

1. Жамият акциядорларининг навбатдаги йиллик умумий йиғилиши ҳисоб комиссиясининг шахсий таркибини тасдиқлаш.
 2. Жамият акциядорларининг навбатдаги йиллик умумий йиғилишини ўтказиш регламентини тасдиқлаш.
 3. Жамиятнинг 2024 йилги молиявий фаолият яқунлари бўйича ҳисоботини ва жамият бош директорининг жамиятнинг 2025 йилдаги асосий фаолият йўналишлари тўғрисидаги ҳисоботини тасдиқлаш.
 4. Жамиятнинг 2024 йилдаги фаолияти яқунлари бўйича ташқи аудит ҳулосасини кўриб чиқиш.
 5. Жамият кузатув кенгашининг 2024 йилдаги фаолияти тўғрисидаги ҳисоботини тасдиқлаш.
 6. Жамиятнинг 2024 йил якуни бўйича йиллик ҳисоботини, бухгалтерия балансини, фойда ва зарарлар тўғрисидаги ҳисоботини тасдиқлаш.
 7. Жамиятнинг ташкилий тузилмасини тасдиқлаш.
 8. Бош директорнинг ваколатларини узайтириш.
 9. Жамиятнинг 2024 йил якуни бўйича олинган соф фойдасини тақсимлаш тартибини тасдиқлаш.
 10. Жамиятнинг 2025 йилга мўлжалланган ташқи аудиторини тасдиқлаш ва унинг хизматлари учун тўланадиган ҳақнинг энг юқори миқдорини белгилаш.
 11. Акциядорларнинг навбатдаги йиллик умумий йиғилишига бўлган даврда жамиятнинг жорий фаолиятини амалга ошириш давомида жамият томонидан жамиятнинг аффилиланган шахслари билан тузилиши мумкин бўлган битимлар ва йирик битимлар рўйхатини белгилаш, тасдиқлаш ва амалга ошириш.
 12. “Multicard payment” АЖнинг янги тахрирдаги уставини тасдиқлаш.
 13. Жамиятнинг кузатув кенгаши тўғрисидаги низомни (янги тахрирда) тасдиқлаш.
- Умумий йиғилиш ўтказилиши тўғрисида хабар бериш учун акциядорлар реестри 2025 йил 23 апрель ҳолатига, умумий йиғилишда қатнашиш ҳуқуқига эга бўлган акциядорлар реестри 2025 йил 11 май ҳолатига тузилади.

Жамият кенгаши акциядорлардан шахсни тасдиқловчи ҳужжат, акциядорларнинг вакилларидан эса шахсни тасдиқловчи ҳужжат ва қонунчиликда белгиланган тартибда тасдиқланган ишончнома билан йиғилишга келишларини сўрайди.

Жамият акциядорлари ва улар номидан вакиллар 2025 йил 15 май куни соат 10.00 дан бошлаб юқорида кўрсатилган манзилда рўйхатга олинади.

Йиғилишни ўтказиш бўйича қўшимча ахборот ҳамда унда кўриладиган масалалар билан қўйидаги манзилга ва телефон рақамларига мурожаат қилиш орқали танишиш мумкин: электрон манзил: corp.multicard.uz, “Multicard payment” АЖ офиси (Тошкент шаҳри, Садик Азимов кўчаси, 50-уй).

Телефон: +99899-860-48-84, Электрон манзил: yu.haliulina@multicard.uz.

“MULTICARD PAYMENT” АЖ кузатув кенгаши.

Термиз туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 21 апрелдаги 4-1901-2504/3706-сонли ажримига мувофиқ, Термиз шаҳридаги “Nigor Komil Farm” хусусий корхонасига нисбатан тўловга қобилиятсизликнинг кузатув тартиб-таомилига доир иш юритув бошланган ва муваққат бошқарувчи этиб Р.Омонов тайинланган.

Шу муносабат билан Термиз шаҳридаги “Nigor Komil Farm” хусусий корхонаси (СТИР 304239394) кузатув ишларини “Тўловга қобилиятсизлик тўғрисида”ги қонун талабларига мувофиқ олиб бориш мақсадига кредиторларнинг биринчи йиғилиши 2025 йил 23 май куни соат 11.00 да Сурхондарё вилояти, Термиз шаҳар, М.Қошқарий кўчаси 36-а уйда Давлат активларини бошқариш агентлиги биносида бўлиб ўтади.

Кредиторлар йиғилиши кун тартиби:

1. Муваққат бошқарувчининг ҳисоботи.
 2. Корхонага нисбатан банкротликнинг кейинги таомилини қўллаш юзасидан иқтисодий судга мурожаат қилиш.
 3. Тугатиш бошқарувчисининг номзодини маъқуллаш.
 4. Муваққат ва тугатиш бошқарувчисининг ойлик иш ҳақини белгилаш.
 5. Бошқа масалалар.
- Шу муносабат билан “Nigor Komil Farm” хусусий корхонаси (СТИР 304239394) биринчи кредиторлар йиғилишида шахсингизни тасдиқловчи ҳужжат ва қарздорликни тасдиқловчи ҳужжат асосида қатнашинингиз лозим.

Ушбу жамият кредиторларининг талаблари эълон чиққан кундан бошлаб бир ой давомида қабул қилинади. Мурожаат учун тел: (99) 740-17-60.

Тошкент туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 7 апрелдаги 4-1001-2502\18427-сонли ҳал қилув қарорига асосан “Premium mebel komfort” МЧЖ (СТИР 308788722), 2025 йил 7 апрелдаги 4-1001-2528\27626-сонли ҳал қилув қарорига асосан “Euro kabel energy” МЧЖ (СТИР 307750035), 2025 йил 7 апрелдаги 4-1001-2528\27642-сонли ҳал қилув қарорига асосан “Emiral fasade in alu-minium” МЧЖ (СТИР 309119570, 2025 йил 7 апрелдаги 4-1001-2528\27657-сонли ҳал қилув қарорига асосан “Billur techno trade” МЧЖ (СТИР 308926874) соддалаштирилган тартибда банкрот деб топилди. Тугатиш суд бошқарувчиси этиб Б.Б. Жонқобилов тайинланди.

Мурожаатлар бир ой давомида қабул қилинади. Корхоналар муҳрлари топширилмаса бекор қилинган ҳисобланади.

Индекс: 100156. Тошкент шаҳри, Чилонзор тумани, 20-а мавзе, 1-уй, 53-хонадон.

Тел: (99) 871-29-32, электрон почта jonqobilovbb@gmailcom.

Ромитан туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 21 апрелдаги ҳал қилув қарорлари билан Жондор туманидаги қуйида номлари келтирилган корхоналар соддалаштирилган таомил бўйича банкрот деб топилиб, тугатишга доир иш очилган.

“Xayrulla Farrux Temurbek” МЧЖ (СТИР 310437644) 2025 йил 21 апрелдаги 4-2006-2501/2548-сонли иш, “Universe Silver” МЧЖ (СТИР 309739876) 4-2006-2501/2550-сонли, “Muxammadali Anvarbek Market” МЧЖ (СТИР 307925780) 4-2006-2501/2551-сонли, “Bekzod Sherzod Avtotrans” МЧЖ (СТИР 306498594) 4-2006-2501/2567-сонли, “Me’mor Capital City Building” МЧЖ (СТИР 306603185) 4-2006-2501/2569-сонли, “Jasmina Kamronbek” МЧЖ (СТИР 300425879) 4-2006-2501/2570-сонли, “Dilshoda Mega Dizayn” ИЧК (СТИР 307561531) 4-2006-2501/2595-сонли, “Yangiier Meva Ta’minot” МЧЖ (СТИР 307271917) 4-2006-2501/2596-сонли, “G’olib Umid Mardon” МЧЖ (СТИР 310556426) 4-2006-2501/2597-сонли, “Yunus Rustam Trade” МЧЖ (СТИР 309799161) 4-2006-2501/2598-сонли, “Fazliddin Ikromjon Bayram” О/К (СТИР 306437455) 4-2006-2501/2599-сонли, “Otabek Asil-bek Amirbek” Д/Х (СТИР 303244398) 4-2006-2501/2600-сонли, “Maxsuma Anvar Sarvar” Х/К (СТИР 308371134) 4-2006-2501/2601-сонли, “Qaxor Qaxramon Raxmon” МЧЖ (СТИР 304759293) 4-2006-2501/2602-сонли, “Nosir Ali Moto Trade” МЧЖ (СТИР 310455909) 4-2006-2501/2603-сонли, (СТИР 304561383) 4-2006-2501/2604-сонли, “Jondor Barakali Bunyodkor” МЧЖ (СТИР 306976514) 4-2006-2501/2605-сонли, “Mirzo Muslim Shukur” МЧЖ (СТИР 308051912) 4-2006-2501/2606-сонли, “Salim Said mega fruits” МЧЖ (СТИР 306192834) 4-2006-2501/2607-сонли, “Nasrullo Ilhom” МЧЖ (СТИР 307595838) 4-2006-2501/2608-сонли, “Sarvarbek Farxodbek Ta’ Minot” МЧЖ (СТИР 309166751) 4-2006-2501/2609-сонли, “Islom Umar” МЧЖ (СТИР 306161714) 4-2006-2501/2610-сонли, “Quvon-chbek Agro Kimyo Ta’minot” МЧЖ (СТИР 308449312) 4-2006-2501/2611-сонли, “Dalmun Eco Bozor” МЧЖ (СТИР 307869566) 4-2006-2501/2612-сонли, “Jaliljon Mega Lyuks” МЧЖ (СТИР 306718169) 4-2006-2501/2613-сонли, “Exclusive Baraka Omad” МЧЖ (СТИР 305627924) 4-2006-2501/2614-сонли, “Shoqimobod” МЧЖ (СТИР 202502769) 4-2006-2501/2615-сонли “Buxara Brend Texnika” МЧЖ (СТИР 308638156) 4-2006-2501/2616-сонли, “Otabek Bunyodbek Shamshodbek” МЧЖ (СТИР 306151243) 4-2006-2501/2617-сонли, “Homidov Kamoliddin Shoxijahon” МЧЖ (СТИР 305695556) 4-2006-2501/2618-сонли, “Magnum Security” МЧЖ (СТИР 309544297) 4-2006-2501/2619-сонли, “Shox-bek Shaxzoda Aslbek” О/К (СТИР 306318319) 4-2006-2501/2620-сонли, “Nilufar Ferangiz Nigora” О/Кра (СТИР 309137834) 4-2006-2501/2621-сонли ҳамда “Quvonch Said Qurbon” МЧЖ (СТИР 304480595) 4-2006-2501/2622-сонли ҳал қилув қарорлари билан юқорида номлари келтирилган корхоналарга суд(тугатиш) бошқарувчиси лавозимига Ҳалимов Алишер Жўрақулович тайинланган.

Кредиторларнинг биринчи йиғилишлари 2025 йил 23 май соат 11.00 да Бухоро вилояти солиқ бошқармаси маъмурий биносида ҳамда соат 14.00 да Жондор тумани ДСИ маъмурий биносида бўлиб ўтади.

Юқорида кўрсатилган корхоналарнинг бурчак штампи ва думалоқ муҳрлари эълон чоп этилган кундан бошлаб 10 (ўн) кун ичида тугатиш бошқарувчисига топширилмаган тақдирда, йўқолган деб топилиб, бекор қилинган ҳисобланади.

Кредиторлар қарздорга бўлган талаблари билан эълон чиққан кундан бошлаб бир ой муддат ичида суд (тугатиш) бошқарувчисига мурожаат қилишлари мумкин.

Суд (тугатиш) бошқарувчиси Ҳалимов Алишер Жўрақулович.

Алоқаучун телефон: (91) 446-70-58, (93) 140-77-00.

Кредиторлар диққатига!

Ғузор туманлараро иқтисодий судининг 2023 йил 15 августдаги 4-1803-2302\659-сонли иш бўйича қабул қилган ҳал қилув қарори билан қарздор корхона “ҚашқадарёНефт-ҒазиччиТаъминот” АЖга (СТИР 200676166) нисбатан умумий тартибда банкротликка оид ишни юритиш бошланган ва тугатиш жорий этилган.

Қарздор ташкилотнинг барча мол-мулклари бир неча марта Е-аукцион ким ошди савдоларига қўйилганига қарамасдан сотилмасдан қолди. Тугатишга берилган муддат яқунланаётганлиги муносабати билан ким ошди савдоларида сотилмасдан қолган мол-мулклар тегишли тартибда таклиф қилиниши лозим.

Юқоридагиларга кўра, қарздорларнинг кредиторлари умумий йиғилиши 2025 йил 28 апрель куни соат 16.00 да Қарши шаҳри, А.Темур кўчаси 43-уйда Давлат активларини бошқариш агентлигининг Қашқадарё вилояти ҳудудий бошқармаси биносида ўтказиш белгиланди. Руйхатга олиш соат 15.00 да бошланади.

Йиғилиш Миришкор туман Жейнов пахта тозалаш корхонаси бош биносида юқорида белгиланган вақтда ўтказилади.

Кўриладиган масалалар:

1. Тугатиш бошқарувчиси ҳисоботи.
 2. Е-аукцион ким ошди савдоларида сотилмасдан қолган мол-мулкларни кредиторларга ва маҳаллий ҳокимиятга топшириш.
 3. Бошқа масалалар.
- Йиғилишда белгиланган тартибда расмийлаштирилган ишончнома, акт-сверка ва бошқа ҳужжатлар бўлиши шарт.

Барча кредиторлар ўз талабларини йиғилиш ўтказилаётган кунгача билдиришлари мумкин. Қарши шаҳри, А.Темур кўчаси, 43-уй, Давлат активларини бошқариш агентлигининг Қашқадарё вилояти ҳудудий бошқармаси.

Қўшимча маълумотлар учун телефон: +99891-458-00-35, +99890-670-00-35.

“Оҳангарон дон” акциядорлик жамияти акциядорлари диққатига!

2025 йил 16 май куни соат 09.00 да Охангарон шаҳар, Саноат ҳудуди кўчаси 1-уй, “Оҳангарон дон” АЖ мажлислар залида акциядорларнинг навбатдаги йиллик умумий йиғилиши бўлиб ўтади.

Акциядорлар умумий йиғилишининг кун тартиби:

1. Умумий йиғилиш иш регламентини ва санақ комиссияси аъзоларини сайлаш ва тасдиқлаш.
2. Жамиятнинг 2024 йил якуни бўйича ижроия органининг бизнес-режа ижросини ва молиявий-ҳўжалик фаолияти натижалари юзасидан ҳисоботини тасдиқлаш.
3. Жамиятнинг 2024 йил якуни бўйича йиллик ҳисоботини тасдиқлаш.
4. 2024 йил учун жамиятнинг молиявий-ҳўжалик фаолиятини текшириш натижалари юзасидан жамият тафтишчиси ҳулосасини тасдиқлаш.
5. 2024 йил учун жамиятнинг молиявий-ҳўжалик фаолиятини текшириш натижалари юзасидан жамият ташқи аудиторининг (МАС, ХАС) ҳулосасини тасдиқлаш.
6. 2024 йил учун аудиторлик ташкилотининг СМК, СЙК ва уларнинг бажарилиши фоизларининг ҳисобланган миқдорини текшириш натижалари юзасидан жамият ташқи аудиторининг ҳулосасини тасдиқлаш.
7. 2024 йил учун жамиятда ўтказилган корпоратив бошқарув тизимини мустақил баҳолаш натижаларини текшириш юзасидан жамият ташқи аудиторининг ҳулосасини тасдиқлаш.
8. Жамият кузатув кенгашининг 2024 йил якуни бўйича ҳисоботини тасдиқлаш.
9. Жамият кузатув кенгашининг бошқарув раиси ва аъзолари билан тузилган шартноманинг амал қилиш муддатини узайтириш ҳамда ижроия органи аъзолари билан 2025 йил учун меҳнат шартномаларини қайта тузиш тўғрисидаги ҳулосасини тасдиқлаш.
10. 2025 йил учун жамиятнинг бизнес-режасини тасдиқлаш.
11. Жамиятнинг 2024 йил якуни бўйича фойда ва зарарларини тақсимлаш.
12. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 24 августдаги ПҚ-4426-сонли қарори талабларига мувофиқ, 2024 йил якуни бўйича ишлаб чиқаришни маҳаллийлаштириш, саноатда кооперация алоқаларини кенгайтириш масалалари бўйича директорнинг ҳисоботини тасдиқлаш.
13. 2025 йил учун аудиторлик ташкилотини тасдиқлаш ва унинг хизматига тўланадиган ҳақ миқдори белгилаш.

Жамият акциядорларининг умумий йиғилиш ўтказиш учун акциядорларнинг реестри 2025 йил 12 май ҳолатига шакллантирилади.

Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги томонидан 2022 йил 5 сентябрдаги “Аудиторлик ташкилотлари реестри”га кирган Ўзбекистон Республикасининг ҳудудига барча ҳўжалик юритувчи субъектларда аудиторлик текширувини ўтказиш ҳуқуқи берилган “МХХS bussines garant audit” МЧЖ мустақил аудиторлик ташкилоти томонидан аудиторлик ҳулосаси берилди.

“Оҳангарон дон” АЖнинг 2024 йил 1 январидан 31 декабригача бўлган даврдаги молиявий ҳисоботи барча муҳимлилик жиҳатлари бўйича унинг молиявий ҳолатини ва молиявий ҳўжалик фаолияти натижаларини ҳаққоний акс эттиради ва бухгалтерия ҳисоби тўғрисидаги қонун ҳужжатлари талабларига мувофиқ келади.

“Оҳангарон дон” АЖ кузатув кенгаши.

“Шўрчи дон маҳсулотлари” акциядорлик жамияти
акциядорлари диққатига!

2025 йил 14 май куни “Шўрчи дон маҳсулотлари” АЖ акциядорларининг навбатдаги йиллик умумий йиғилиши ўтказилади. Умумий йиғилиш соат 10.00 да Шўрчи шаҳри, Олтин бошоқ даҳаси, 1-уй, жамият мажлислар залида ўтказилади, рўйхатга олиш соат 09.00 да бошланади.

2024 йил молия-хўжалик фаолияти якунларига бағишланган акциядорларнинг умумий йиғилишининг кун тартиби:

- Жамият акциядорларининг йиллик умумий йиғилиши регламентини тасдиқлаш.
- Умумий йиғилиш санок комиссияси аъзолари сони ва шахсий таркибини тасдиқлаш.
- Жамиятнинг 2024 йилги молия-хўжалик фаолияти якунлари ва бизнес-режанинг бажарилиш юзасидан бош директорнинг йиллик ҳисоботини ва ижроия органи томонидан акциядорларнинг ўтган умумий йиғилиш билан ҳозирги йиғилиш орасида қабул қилинган қарорларини тасдиқлаш.
- Жамиятнинг 2025 йилга мўлжалланган бизнес-режаси ва харажатлар сметасини тасдиқлаш.
- Жамият кузатув кенгашининг 2024 йилги фаолияти бўйича ҳисоботини ва кенгаш томонидан акциядорларнинг ўтган умумий йиғилиш билан ҳозирги йиғилиш орасида қабул қилинган қарорларни тасдиқлаш.
- Жамиятнинг 2024 йилги молия-хўжалик фаолиятини текшириш юзасидан тафтиш комиссиясининг ва аудиторлик ташкилотининг ҳулосасини тасдиқлаш.
- Жамиятнинг 2024 йил якуни бўйича йиллик ҳисоботини, бухгалтерия балансини, фойда ва зарарлари ҳисоб варағини тасдиқлаш.
- Жамиятнинг 2024 йил якуни бўйича олинган соф фойдасини тақсимлаш, дивиденд миқдори, тўлов шакли ва тартиби тўғрисида.
- Жамият кузатув кенгаши аъзоларини сайлаш.
- 2025 йил молиявий-хўжалик фаолиятини текшириш учун ташқи аудиторлик ташкилотини ва унга тўланадиган ҳақнинг энг юқори миқдорини белгилаш.
- Жамият тафтиш комиссияси аъзоларини сайлаш.
- Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 24 августдаги ПҚ-4ч26-сонли қарори талаблариغا мувофиқ, бошқарув раисининг ишлаб чиқариш, маҳаллийлаштириш, sanoatda кооперация алоқаларини кенгайтириш ҳамда ахборот технологиялари масалалари бўйича биринчи ўринбосарининг 2024 йил якунлари бўйича ҳисоботини тасдиқлаш.
- Корхоналарда харидлар жароёнининг шаффофлиги, асослиги, шу жумладан, маҳаллий маҳсулотларнинг сифат ва нарх бўйича белгиланган параметрларига мувофиқлигини ҳисобга олган ҳолда импорт харидларини,шунингдек валюта ресурсларидан самарали фойдаланиши тўғрисида ташқи аудит ҳулосаларини кўриб чиқиш.
- Корпоратив бошқарув кодекси талабларига мувофиқ, жамиятда 2024 йил якуни бўйича мустақил ташкилот томонидан ўтказилган корпоратив баҳолаш бўйича ҳулосани тасдиқлаш.
- Жамият бош директори ва аъзолари билан тузилган шартномаларнинг амал қилиш муддатини бир йилга узайтириш.
- Жамиятнинг янги тахирдаги низомини тасдиқлаш ҳамда муҳр тамғасини алмаштириш.
- Давлат рўйхатидан чиқарилиб, фаолияти тугатилган юридик шахсларнинг қўп йиллардан буён ундирилмасдан келинаётган умидсиз, муддати ўтган дебитор қарздорликларини тегишли ҳужжатларга асосан жамият балансидан чиқариш ва даъво муддати ўтган кредитор қарздорликларни жамият фойдасига олиш.

Жамият акциядорларининг реестри шакллантириладиган сана – умумий йиғилишни ўтказиш тўғрисида хабардор қилиш учун акциядорлар реестри 2025 йил 21 апрель ҳолатига ва акциядорлар умумий йиғилишида қатнашиш ҳуқуқига эга жамият акциядорларининг реестри (3 иш куни олдин) 2025 йил 8 май ҳолатига шакллантирилади.

Навбатдаги йиллик умумий йиғилишда иштирок этиш учун жамиятга ташриф буюрган акциядорлар ўзлари билан шахсни тасдиқловчи ҳужжат, уларнинг вакиллари белгиланган тартибда ишончнома билан келишлари шарт.

Акциядорлар навбатдаги йиллик умумий йиғилиш учун тайёрланган ҳужжатлар билан “Шўрчи дон маҳсулотлари” АЖ биносида танишишлари мумкин.

Акциядорлар қўшимча маълумот олиш учун қуйидаги манзилга мурожаат қилишлари мумкин: Сурхондарё вилояти, Шўрчи шаҳри, Олтин бошоқ даҳаси, 1-уй, электрон почта: shurchidon1@mail.ru, тел.: (0376) 45-78-555 ёки +99899-579-10-00.

“Шўрчи дон маҳсулотлари” АЖ кузатув кенгаши.

F.Ubaydullayev, Z.Umrzoqov (foto), O‘za muxbirlari.

Tadbirkorlar qo‘llab-quvvatlanmoqda

Jalaquduq tumanida tadbirkorlar bilan ochiq muloqot bo‘lib o‘tdi.



Andijon viloyati soliq boshqarmasi tomoni-dan tumanda faoliyat olib borayotgan tad-birkorlar ishtirokida o‘tkazilgan ochiq mu-loqotda kichik va o‘rta biznes vakillarining mamlakatimiz iqtisodiyotini yuksaltirish-dagi o‘rni va roli muhim ekanligi, viloyatda tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash borasida keng ko‘lamli ishlar olib borilayotgani, xususan, soliq idoralari tomonidan ularni qiynayotgan muammo va masalalarni qonuniy hal etilishiga yaqindan yordam ko‘rsatilayotganligi aytib o‘tildi.

Tadbirda mutaxassislar Prezidentimiz-ning joriy yil 19 martdagi “Kichik va o‘rta biznesning iqtisodiyotdagi o‘rmini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonining

mazmun-mohiyati, mazkur hujjat asosida tadbirkorlarga berilgan imtiyoz va imko-niyatlar, shuningdek, soliq qonunchiligi, hisobotlarni topshirish tartiblari haqida ishtirokchilarga ma‘lumotlar berdi. Tad-birkorlarni qiziqtirgan savollarga batafsil javob qaytarildi.

Muloqot davomida tadbirkorlarning asosan soliq hisobotlarini topshirish, imtiyozlardan foydalanish va kadastr or-ganlari bilan bog‘liq muammo va takliflari eshitildi, ularni ijobiy hal etish choralari ko‘rildi.

Tadbir yakunida tumanda namunali ish yuritib yurtimiz iqtisodiyoti va xususiy sektor rivojiga munosib hissa qo‘shayot-gan bir guruh tadbirkorlar “Eng ko‘p ish o‘rni yaratgan tadbirkor”, “Eng yosh tad-birkor”, “Eng namunali tadbirkor” singari qator yo‘nalishlar bo‘yicha tashakkurno-ma va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandi.



На основании определения межрайонного экономического суда Зангиотинского района от 18 апреля 2025г. по делу № 4-1101-2501/7166 в отношении ООО «AVISION» введена процедура наблюдения, временным управляющим назначена Боянская Т.В. Обращения принимаются по адресу: 100047, г. Ташкент, 22 Авиагородок, а/я 1091, тел. +998977449128.

Вниманию акционеров АО «SUVMASH»!

В соответствии с решением наблюдательного совета общества, протокол № 3 от 22.04.2025г., годовое общее собрание акционеров АО «SUVMASH» по итогам 2024 года состоится 20 мая 2025 года в 11.00 часов в конференц-зале АО «SUVMASH», по адресу: Республика Узбекистан, г. Ташкент, Бектемирский район, ул. Хусайн Байкаро, дом № 13.

Повестка дня включает в себя следующие вопросы:

- Заслушивание отчета наблюдательного совета по итогам 2024 года.
- Утверждение годового отчета по итогам 2024 года.
- Заслушивание заключения ревизионной комиссии по итогам 2024 года, по соблюдению установленных законодательством требований по управлению обществом.
- Принятие решения по распределению чистой прибыли общества по итогам 2024 года, размера дивидендов и формы его выплаты.
- Утверждение оставления в распоряжении АО «SUVMASH» дивидендов, не востребованных владельцами или их законным правопреемниками или наследниками в установленные для истечения исковой давности сроки.
- Утверждение годового бизнес-плана на 2025 год.
- Принятие решения о проведении аудиторской проверки за 2025 год, об определении аудиторской организации и предельного размера оплаты её услуг за 2025 год.
- Принятие решения о продлении или о прекращении трудового договора с генеральным директором.
- Выборы членов ревизионной комиссии.
- Выплата вознаграждения членам наблюдательного совета по итогам работы за 2024 год.

С информацией, подлежащей представлению акционерам при подготовке к проведению годового Общего собрания акционеров, акционеры могут ознакомиться в обществе по вышеуказанному адресу.

Регистрация акционеров проводится с 10-00 до 10-40 часов, акционерам иметь при себе паспорт, а представителям акционеров – паспорт и доверенность, заверенную нотариально.

Телефоны для справок: (+99871) 295-18-22; (+99871) 295-06-40 (вн. 104; 149).

Официальный веб сайт: www.suv mash.uz

Адрес электронной почты: office@suv mash.uz; suvmash@mail.ru.

Реестр акционеров, имеющих право на участие в годовом Общем собрании акционеров, будет составляться по состоянию на 14 мая 2025г.

Наблюдательный совет АО «SUVMASH».

ВНИМАНИЮ АКЦИОНЕРОВ АО «ALFA INVEST SUG’URTA KOMPANIYASI»!

16 мая 2025 года в 15.00 часов состоится внеочередное общее собрание акционеров в здании АО «ALFA INVEST SUG’URTA KOMPANIYASI», расположенного по адресу: г.Ташкент, Шайхантахурский район, ул. Лабзак, дом 10.

Право на участие на внеочередном общем собрании акционеров имеют акционеры, зафиксированные в реестре акционеров, сформированном в 12 мая 2025 года.

Регистрация акционеров начнется в 15.00 часов, 16 мая 2025г.

Повестка дня:

- Утверждение счетной комиссии и регламента проведения внеочередного общего собрания акционеров общества.
- Досрочное прекращение полномочий члена наблюдательного совета общества Нурмухамедова З.Г.
- Избрание члена наблюдательного совета общества вместо выбывшего.

Сариосиё туманлараро иқтисодий судининг 2022 йил 22 апрелдаги 4-1903-2201/126-сонли иш бўйича ажрим асосида “Ўзун агросервис МТП 2017” МЧЖ тўловга қобилиятсиз деб топилган ва тугатишга доир иш юритиш олиб борилмоқда. Мазкур МЧЖ балансидаги “VEKTOR-410” русумли, 2018 йилда ишлаб чиқарилган, давлат рақам белгилари 75 ДА183, 75 ДА184 ва 75 ДА189 бўлган, соз ҳолатдаги галла ўриш комбайнларининг ҳар бири 791 085 900 сўмдан мулкий мажмуа сифатида оммавий оферта шартларида савдога чиқарилмоқда. Мазкур эълон берилгач, камида ўн беш кундан кейин улар учун юқори нархни таклиф қилган шахс билан корхонанинг олди-сотди шартномаси тузилади.

Мурожаат учун тел: 99-255-06-75, 93-526-75-75.

Xolmo‘min Mamatrayimov, O‘za muxbiri.

Ochiq muloqotda muammolarga yechim izlandi

Surxondaryo viloyat soliq boshqarmasi boshlig‘i Erkin Narmanov Boysun tumanida bo‘lib, tog‘li hududdagi kichik va o‘rta biznes vakillari bilan sohaga oid yangilik ham-da o‘zgarishlar, ishbilarmonlarni qo‘llab-quvvatlash uchun tadbirkorlarga berilayot-gan soliq imtiyozlari to‘g‘risida ochiq muloqot o‘tkazdi.

Vohaning tog‘li va chekka tumani ixti-soslashuvi hamda kichik biznes uchun mavjud sharoitiga ko‘ra 4 toifadagi hu-dudlar tarkibiga kiritilgan. Ayni paytda hududda ikki mingdan ortiq tadbirkorlik sub'ekti faoliyat yuritib, tumanni ijti-moiy-iqtisodiy rivojlantirishga munosib ulush qo‘shmoqda.

Uchrashuvda viloyat soliq boshqarmasi boshlig‘i joriy yilning o‘tgan davrida vohada o‘zini-o‘zi band qilgan 150 kishining 11 nafari boysunlik ekani va yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tganini alohida ta’kidladi. Ularning tadbirkorlik salohiyatini keng

namoyon etishi uchun berilayotgan soliq imtiyozlari muhim omil bo‘lishini qayd etdi. Jumladan, birgina o‘tgan yil tuman-da faoliyat yuritayotgan 521 ta tadbir-korlik sub'ekti 40 milliard 369 million so‘mlik soliq imtiyozlaridan foydalangan.

Ochiq muloqot chog‘ida tadbirkorlar-ning soliq hisobotlarini topshirish, soliq imtiyozlaridan foydalanish, ma’muriy jarimalarni qo‘llash, kadastr hujjatlari bo‘lmagan yer maydonlariga soliq hi-soblash kabi masalalardagi murojaatlari tinglanib, muammolarini hal etish cho-ralari izlandi. Tadbirkorlarni qiziqtirgan savollarga atroflicha javob berildi.

Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazining Bank-moliya va kapital bozorlari faoliyatini o'rganish sho'bas.

Biznes muhiti: sharoit ham, umidlar ham yaxshilandi

Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi tomonidan respublikamiz bo'ylab tadbirkorlar o'rtasida o'tkazilgan so'rovlari asosida joriy yil mart oyidagi biznes muhitini tahlil qilish natijalarini taqdim etdi.

O'zbekiston biznes muhiti indeksi sanoatning turli tarmoqlaridagi 1000 dan ortiq korxonada o'tkazilgan so'rovlar asosida hisoblab chiqiladi. Biznes muhitining o'zgarishi indekatori IFO instituti (Germaniya) metodologiyasiga asoslangan. So'rovlar davomida korxona rahbarlari ishlab chiqarish dinamikasi, talab, narxlar va boshqa ko'rsatkichlar asosida tadbirkorlik faoliyatidagi joriy va kutilayotgan o'zgarishlarni baholaydi.

Bu galgi olingan ma'lumotlar asosida biznesning joriy holati va uning taxminlarini tavsiflovchi biznes muhiti ko'rsatkichi shakllantirildi.

Tahlillarga qaraganda, O'zbekistonda biznes muhiti indeksi joriy yil mart oyida ketma-ket ikkinchi oy o'sdi. Umuman, kompaniyalar o'zining hozirgi holatidan anchayin mamnun. Ularning kelgusi oylar uchun kutilmalari yuqori darajadagi ishonchi kengayishga, o'sib borayotgan talabga moslashishga tayyorligi bilan tavsiflanadi.

Mart oyida biznes muhiti indeksi oldingi oyga nisbatan 8 bandga o'sib, 61 bandni (-100 dan +100 gacha) tashkil etdi, bu biznes muhitining holatini ijobiy deb baholaydi. Joriy biznes holati indeksi o'tgan oyga nisbatan 6 bandga yaxshilanib, 46 bandga yetdi. Biznesni optimistik baholash ham ancha yuqori darajada qolmoqda, biznesning istiqboldagi kutilmalari indeksi 9 bandga o'sib, 77 bandni tashkil etdi.

So'rovnoma natijalariga ko'ra, 31 foiz tadbirkor biznesi so'nggi uch oyda yaxshilanganini, 39 foizi esa mahsulot va xizmatlariga talab ortganini qayd etgan. Bundan tashqari, har beshinchi korxonada xodimlar soni ko'paygan.

Tadbirkorlarning iqtisodiyot barqarorligiga ishonchi tobora ortib bormoqda. Respondentlarning 76 foizi kelgusida biznes holati yanada yaxshilanishini, 69 foizi ishchilar sonini ko'paytirishni rejalashtirmoqda, 8 foiz tadbirkorlar esa o'z mahsulotlari narxining pasayishini taxmin qilmoqda.

Sohalar tahlili, ayniqsa, qishloq xo'jaligida ijobiy o'zgarishlarni ko'rsatmoqda, bunda biznes muhiti indeksi 24 bandga yaxshilanib, 69 bandgacha ko'tarildi. Bunga bir qancha muhim omillar, jumladan, so'nggi uch oyda 7 foizga o'sgan qishloq xo'jaligi mahsulotlariga talab ortishi va fermerlar optimistik kayfiyatining 4 foizga yaxshilanishi sabab bo'ldi.

Qurilish sohasida biznes muhiti indeksi 3 bandga yaxshilanib, 64 bandni qayd etdi. Joriy holatini "yaxshi" deb baholayotgan tadbirkorlar sonining 9 foizga ortgani, ishbiarmonlik sharoitining yaxshilanishi kutilmalarining 4 foizga ko'tarilgani mazkur sohaga ishonch oshganidan dalolat beradi.



Xizmatlar sohasida ham biznes muhitining yaxshilangani aytiladi. Mazkur ko'rsatkich 6 bandga yaxshilanib, 58 bandga yetgan bo'lib, bu so'nggi uch oyda xizmatlarga talabning 18 foizga oshishi, shuningdek, xodimlar sonining 7 foizga o'sishi bilan bog'liq.

Sanoatda biznes muhiti o'tgan oyga nisbatan 9 bandga pasayib, 56 bandni tashkil etdi, biroq bu ko'rsatkich ijobiy holatda qolmoqda, bu esa tarmoq barqarorligini ko'rsatadi.

Biznesning dolzarb muammolariga to'xtaladigan bo'lsak, so'rov iqtisodiyotning turli tarmoqlarida moliyalashtirish imkoniyatlaridagi o'zgarishlarni ko'rsatadi. Qishloq xo'jaligida to'siqlar 5 foizga, qurilishda 2 foizga kamaydi. Shu bilan birga, sanoatda korxonalarning 13 foizi hali ham moliya-

lashtirishda qiyinchiliklarga duch kelayotgan bo'lsa, xizmatlar sohasida bu ko'rsatkich oy davomida 10 foizga ko'paygan.

Elektr ta'minoti bilan bog'liq vaziyat barqaror va respondentlarning 5 foizini tashvishga solmoqda. Qishloq xo'jaligida elektr ta'minotidagi to'siqlar 4 foizga, qurilishda esa 2 foizga kamaygan. Shu bilan birga, sanoat va xizmat ko'rsatish sohalarida elektr ta'minotidan foydalanishdagi qiyinchiliklar mos ravishda 1 foiz va 3 foizga oshdi.

Shu bilan birga, tadbirkorlarning 9 foizi biznes yuritishda boshqa to'siqlar mavjudligini, jumladan byurokratiya, ruxsatnomalar va litsenziyalarni olishda kechikishlar, yuqori foiz stavkalari, noqonuniy buzishlar, halol raqobat va monopoliya bilan bog'liq muammolar mavjudligini qayd etgan.

Zamira Tojiyeva.

Rieltorlik faoliyati: yangilangan qonun loyihasi muhokama qilindi

Mamlakatimizda barcha xizmatlar bozorida talabning muayyan qismi rieltorlik faoliyati orqali qondirilmoqda.

Xususan, 2024 yilda ko'chmas mulk bilan tuzilgan bitimlar soni 329 mingtani, ko'rsatilgan rieltorlik xizmatlari hajmi 50 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023 yilga nisbatan 16 foizga oshgan. Bugungi kunda respublikamizda 285 ta rieltorlik tashkiloti, 739 nafar rieltor, shuningdek jamoat birlashmasi tarzida Rieltorlik tashkilotlari uyushmasi hamda O'zbekiston rieltorlar gildiyasi faoliyat yuritmoqda. Albatta bu jarayonda 2010 yilda qabul qilingan "Rieltorlik faoliyati to'g'risida"gi qonun huquqiy asos sifatida muhim ahamiyat kasb etdi. Ammo, o'tgan yillar davomida ko'chmas mulk bozori tezlik bilan rivojlandi, 2021 yildan esa rieltorlik faoliyatini litsenziyalash tartibi bekor bo'ldi, sohani o'zini-o'zi boshqarish mexanizmigam o'tkazish zarurati paydo bo'ldi. Shu kabi holatlar hamda mazkur yo'nalishdagi eng yaxshi xalqaro tajriba o'rganilgan holda "Rieltorlik faoliyati to'g'risida"gi qonunning yangi tahrirdagi loyihasi ishlab chiqildi.

Kuni kecha parlament quyi palatasi yalpi majlisida ushbu qonun loyihasi birinchi o'qishda deputatlar e'tiboriga havola etildi. Loyihani tayyorlash maqsadi, uning mazmun-mohiyati haqida Davlat aktivlarini boshqarish agentligi direktorining birinchi o'rinbosari Nodirbek Xusanov ma'ruzasi tinglandi. Uning e'tiroficha, amaldagi qonunda rieltorlik faoliyatida qonuniylik, xolislik va halollik kabi asosiy prinsiplar o'z aksini topmagan. Sohaning umumiy yo'nalishlarini belgilaydigan hamda rieltorlik xizmatlari sifatini oshirishda muhim omil bo'lgan rieltorning professional xulq-atvori kodeksi va rieltorlik bo'yicha milliy standartlar qabi fundamental tushunchalar yoritilmagan. Rieltorlik faoliyatini "soyadan" chiqarish, sohada yashirin aylanmani qisqartirish, ko'chmas mulk bozorining raqamli transformatsiyasi va rieltorlik xizmatlarini "yagona darcha" tamoyili asosida ko'rsatish bo'yicha huquqiy instrumentlar belgilanmagan. Bugungi kunda dolzarb hisoblangan rieltorlikda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni va ommaviy qirg'in qurolini



tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish masalalari aks ettirilmagan. Bu o'z navbatida, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish bo'yicha moliyaviy choralar ishlab chiquvchi FATF guruhining tavsiyalarini bajarishga va ushbu sohada baholanishga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu kabilar e'tiborga olinib, mavjud qonunga o'n beshdan ortiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda, atamalar va havoalaki normalar qayta ko'rib chiqilib, to'g'ridan to'g'ri amal qiladigan yangi normalar bilan almashtirilmoqda. Qonun loyihasini ishlab chiqish chog'ida AQSH, Kanada, Buyuk Britaniya, Germaniya, Singapur, Yevropa va MDH davlatlarining tajribalari, nufuzli xalqaro ilmiy markazlar tomonidan o'tkazilgan ilmiy izlanishlar natijalari o'rganildi. Loyihada qonuniylik, xolislik va halollik, axbotorning maxfiylik kabi asosiy prinsiplar alohida moddalarda ifodalanmoqda. Vazirlar Mahkamasi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, rieltorlik jamoat birlashmalarining sohada vakolatlar tizimlashtirilib, aniq belgilanmoqda. Rieltorlik subyektlarining hisobini to'g'ri yuritish va faoliyati ustidan samarali monitoringni yo'lga qo'yish maqsadida barcha uchun ochiq bo'lgan va Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan shakllantiriladigan "Rieltorlar, rieltorlik tashkilotlari, ko'chmas mulk bo'yicha agentlar va rieltorlik jamoat birlashmalarining yagona reyestri" axborot tizimi joriy etilishi ko'zda tutilgan. Rieltorlik subyektlari faoliyatida shaffoflikni

ta'minlash hamda noqonuniy amaliyotlarning oldini olish uchun rieltorlar tomonidan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasida qonunchilik talablariga rioya etilishi ustidan Davlat aktivlarini boshqarish agentligining jamoat birlashmalari bilan birgalikda monitoring olib borishi qayd etilmoqda. Norasmiy vositachilarni (maklerlarni) "soyadan" chiqarishda rag'batlantiruvchi chora sifatida yakka tartibdagi tadbirkor va o'zini o'zi band qilgan shaxslarga "ko'chmas mulk bo'yicha agent" sifatida rieltorlik faoliyatini yuritishga ruxsat berish nazarda tutilmoqda. Rieltorlik xizmatlarini "yagona darcha" tamoyili asosida ko'rsatish, bankdan tashqari aylanmani va shu orqali yashirin iqtisodiyotni qisqartirish maqsadida ko'chmas mulk obyektlarining elektron savdosini tashkillashtirish hamda o'zaro hisob-kitoblarni elektron shaklda amalga oshirish (kliring) imkonini beruvchi multilisting tizimlarini yaratish ko'zlanmoqda.

Umuman, qonun loyihasining maqsadi rieltorlik faoliyatini tartibga solishning zamonaviy tendensiyalariga tayanilgan holda rieltorlik xizmatidan foydalanuvchilar va bozor ishtirokchilarining huquqlarini himoya qilish, o'z navbatida ularning mas'uliyatini oshirishga qaratilgan. Shuningdek, rieltorlik xizmatlarining yashirin bozorini qisqartirish, rieltorlik subyektlarining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash orqali halol raqobat muhitini yaxshilash, rieltorlarga nisbatan ishonchni oshirish, sohada o'zini-o'zi boshqarish mexanizmini rivojlantirishdan iborat.

Deputatlar tomonidan qonun loyihasining ayni shu kabi o'ziga xos ahamiyati alohida ta'kidlanib, ayrim normalari bo'yicha qator savollar o'rtaq tashlandi. Qonun tashabbuskorlari tomonidan esa atroflicha tushuntirishlar berilib, ko'tarilgan takliflar loyihani takomillashtirish va maromiga yetkazishda e'tiborga olinishi bildirildi. Shundan so'ng qonun loyihasi konseptual jihatdan qabul qilindi.



Zamira TOJIYEVA.

Boj stavkalari JST qoidalariga muvofiqlashtirilmoqda

Mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatini to'laqonli ro'yogba chiqarish, global ishlab chiqarish va qo'shilgan qiymat zanjiriga integratsiyalash jarayonini yanada chuqurlashtirish, erkin bozor tamoyillarini amalda tatbiq etishni kengaytirish hamda Jahon savdo tashkilotiga (JST) qo'shilish choralari jadallashtirish yo'lida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda.

"Bojxona kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasining ishlab chiqilgani shu yo'nalishdagi qadamlardan biri hisoblanadi. Parlament quyi palatasining navbatdagi yalpi majlisida birinchi o'qishda ko'rib chiqish chog'ida ushbu loyihaning maqsad-mohiyati batafsil tushuntirib berildi. Bu haqda ma'lumot taqdim etgan Bojxona qo'mitasi raisining birinchi o'rinborsari G'ayrat Nosirovning ta'kidlashicha, O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishi bo'yicha tuzilgan ishchi guruhning 8 va 9-yig'ilishlarida (2024 yil may-noyabr) AQSH, Buyuk Britaniya, Yevropa Ittifoqi va Rossiya tomonidan bojxona qonunchiligini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish masalasi ko'tarilgan. Gap shundaki, JSTning Savdo va tariflar bo'yicha bosh bitimining 1-moddasi, 1-bandiga muvofiq, har qanday imtiyoz va qulayliklar a'zo bo'luvchi davlatlarga bir xilda qo'llanilishi majburiy ekanligini belgilab berilgan. Ya'ni O'zbekiston JSTga a'zo bo'lgandan so'ng barcha 166 ta davlatga bojxona bojarini qo'llashda bir xil yondashishni talab qiladi. Bugungi kunda respublikamizning tashqi savdo yo'nalishidagi ikki va ko'p tomonlama xalqaro shartnomalari asosida 10 ta mamlakat (Belarus, Gruziya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Moldova, Rossiya, Turkmaniston, Ukraina, Tojikiston, Ozarbayjon) bilan erkin savdo rejimi, 47 ta mamlakat (Yevropa davlatlari, Buyuk Britaniya, AQSH, Koreya, Hindiston, Pokiston, Xitoy, Yaponiya, Turkiya va boshqalar) bilan eng ko'p qulaylik berish rejimi amal qiladi. Hozirda respublikamiz jami tovarlar importining 32,3 foizi erkin savdo rejimi o'rnatilgan.



tilgan mamlakatlar hissasiga, 61,4 foizi eng ko'p qulaylik berish rejimi asosida o'rnatilgan davlatlar ulushiga, 6,3 foizi savdo rejimi nazarda tutilmagan mamlakat yoki ishlab chiqarilgan mamlakati aniqlanmaganlar hisobiga to'g'ri keladi. Yurtimizga import bo'lib kirayotgan tovarlarning 95 foizi JSTga a'zo davlatlar tomonidan, 5 foizi JSTga a'zo bo'lmagan Belarus, Ozarbayjon, Turkmaniston, Eron va boshqa davlatlardan olib kelinmoqda.

G'ayrat Nosirovning e'tiroficha, Bojxona kodeksiga asosan savdo-iqtisodiy munosabatlarda eng ko'p qulaylik berish nazarda tutilmagan mamlakatlarda ishlab chiqarilgan yoxud ishlab chiqarilgan mamlakati aniqlanmagan to-

varlarga nisbatan amaldagi import boji stavkalarining 2 baravari qo'llanilmoqda.

Endi esa mazkur kodeksga o'zgartirish kiritish orqali import boji stavkalarining 2 baravarini qo'llash amaliyoti bekor qilish nazarda tutilmoqda. Ya'ni amalda Bojxona kodeksining 300-moddasiga ko'ra, erkin savdo rejimi va eng ko'p qulaylik berish rejimi o'rnatilgan davlatlardan kelgan tovarlarga bojxona bojini qo'llash tovarning kelib chiqish sertifikatini taqdim etish orqali import bojxona bojlari hisoblanadi. Qonun loyihasida ko'rsatilganidek, kelgusida, ya'ni qonun qabul qilingach, kelib chiqish mamlakati taqdim etilmagan yoki noma'lum bo'lgan davlatlardan kelgan tovarlarga amaldagi import boji stavkalariga qo'shimcha stavkalar qo'llaniladi. Ya'ni 0-10 foiz oralig'ida bo'lgan import boji stavkalariga 5 foiz, 11-20 foiz oralig'ida bo'lgan import boji stavkalariga 10 foiz, 21-30 foiz oralig'ida bo'lgan import boji stavkalariga 15 foiz, 31 foiz va undan yuqori bo'lgan import boji stavkalariga 20 foiz qo'shimcha stavkalar o'rnatiladi.

Misol uchun, hozir mebel uchun 10 foiz import bojxona boji stavkasi belgilangan bo'lsa, amalda kelib chiqish sertifikat bo'lmaganda 20 foiz undirish lozim. Joriy etilayotgan tartibga asosan import bojxona boji 15 foiz tarzida hisoblanadi.

Qizg'in muhokamarlar davomida deputatlar tomonidan mazkur hujjatning ahamiyatiga alohida e'tibor qaratilib, uning iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish uchun qulay shart-sharoit yaratish, qonunchilikdagi bo'shliqlarni bartaraf etishga, milliy qonunchilik normalarini Jahon savdo tashkiloti qoidalariga muvofiqlashtirish hisobiga adolatli savdoni amalga oshirish, import va eksport geografiyasini kengaytirishga xizmat qilishi ta'kidlandi. Shuningdek, loyiha matnini takomillashtirish bo'yicha qator takliflar ilgari surildi. Nazarda tutilayotgan ayrim normalar yuzasidan aniqlashtiruvchi savollar o'rta tashlandi. Loyiha tashabbuskorlarining savollarga javoban tushuntirishicha, Bojxona kodeksining 364-moddasiga muvofiq, eng ko'p qulaylik berish rejimi tovarning kelib chiqishi to'g'risidagi sertifikatni taqdim etish yo'li bilan tasdiqlanadi. Tovarning kelib chiqishi to'g'risidagi sertifikat bojxona rasmiylashtiruvi uchun zarur bo'lgan bojxona deklaratsiyasi va boshqa hujjatlar bilan bir vaqtda beriladi. Qonun loyihasi konseptual jihatdan qabul qilinib, tegishli qo'mitaga bildirilgan tavsiyalar asosida uni yanada puxtalashtirgan holda ikkinchi o'qishga tayyorlash vazifasi yuklatildi.

Bozorlarda yaroqlilik muddati o'tgan mahsulotlar aniqlanmoqda

Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi va uning hududiy tuzilmalari tomonidan oziq-ovqat mahsulotlarining sifati yuzasidan vakolatli organlar bilan hamkorlikda monitoring tadbirlari o'tkazib kelinmoqda.

Xususan, qo'mitaning Toshkent shahar hududiy boshqarmasi tomonidan "Yunusobod", "Aviasozlar", "Sergeli" va "Navro'z" dehqon bozorlarida olib borilgan o'rganishlarda savdo rastalarida yaroqlilik muddati o'tgan va yaroqlilik muddati ko'rsatilmagan mahsulotlar sotilayotganligi aniqlangan. Jumladan, bozor hududida sifat va sanitariya talablariga javob bermaydigan mol va tovuq go'shtlari hamda ularning qiymalari, iste'molga yaroqsiz va ishlab chiqarish sanasi o'tib ketgan dudlangan kolbasa, sosiska, sut-tuxum mahsulotlari, banan va qo'lda tayyorlangan tuzlama mahsulotlari savdo rastalaridan olib tashlanib, tegishli vakolatli tashkilotlarga axborot kiritilgan. Kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan ko'rsatmalar berilib, qayta ishlashga yuborilgan. Yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etish va kelgusida bu kabi holatlarning oldini olish

yuzasidan Sanitariya-epidemiologiya markazi xodimlari va bozor ma'muriyati bilan hamkorlikda tadbirkorlik subyektlariga tegishli tushuntirish ishlari olib borilgan.

Qo'mita ma'lumotida keltirilishicha, joriy yilning o'tgan davri mobaynida oziq-ovqat mahsulotlari savdosi bo'yicha 403 ta murojaat kelib tushgan. Shundan yaroqlilik muddati o'tgan, ishlab chiqarilgan sanasi va yaroqlilik muddati ko'rsatilmagan tovarlarni sotish bo'yicha murojaatlar soni 131 ta, ya'ni 32,5 foizni tashkil etgan. Shu kabi jami 45 ta holat aniqlanib, tadbirkorlik subyektlariga bajarilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar berilgan va aybdor shaxslarga nisbatan ma'muriy bayonnoma rasmiylashtirilgan. Shuningdek, 22 mln. so'mlik yaroqlilik muddati o'tgan mahsulotlar savdo rastalaridan olinib, iste'molchilarga yetkazilgan zarar qoplab berilgan.

A.Musayev,O'ZA.

Qishloq xo'jaligida samaradorlik omillari ko'rib chiqildi

Qishloq xo'jaligi vaziri Ibrohim Abdurahmonov Bekobod tumani-da viloyat va tuman darajasidagi agrar soha rahbarlari, vazirlik tizimidagi tashkilotlar mutasaddilari hamda fermer va dehqon xo'jaliklari vakillari ishtirokida amaliy seminar o'tkazdi.



Dastlab, vazirlik tizimiga kiruvchi tashkilotlar vakillari bilan qishloq xo'jaligining bugungi holati, mavjud resurslardan samarali foydalanish, eksportbop va raqobatbardosh tizimni shakllantirish kabi dolzarb masalalar muhokama qilindi. Har bir hududdagi agrar muammolarni bevosita joyiga chiqib o'rganish, aniq yechimlar ishlab chiqish hamda amaliy natijalarga erishish bo'yicha tegishli vazifalar belgilab olindi.

Hududlarda amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligi chuqur tahlil qilinib, mavjud muammolar va ularning yechimlariga doir vazifalar ko'rsatib o'tildi. Vazir qishloq xo'jaligi bugungi kunda strategik ahamiyatga ega soha sifatida yangicha yondashuvni talab qilayotganini ta'kidladi. Shu bois, har bir tuman va sektor faoliyati ilmiy asoslangan, texnologik va innovatsion yondashuvlarga tayan-gan holda tashkil etilishi lozimligini qayd etdi.

Suhbat davomida joylardagi real holatni o'rganish, resurslardan oqilona foydalanish va javobgarlikni aniq belgilash imkonini beruvchi vertikal boshqaruv tizimi haqida ham so'z yuritildi. Xususan, hududiy bo'linmalar yagona boshqaruv zanjiri asosida, aniq mas'uli-

yat va natijadorlik tamoyillariga asoslanib ishlashi zarurligi ta'kidlandi.

Shuningdek, fermerlar va agroklaster rahbarlari bilan muloqotda nafaqat yer bilan ishlashni, balki zamonaviy bilimlar, bozor talablari va global raqobat sharoitlariga ham tayyor bo'lishi kerakligi aytiladi. Suv resurslaridan samarali foydalanish, intensiv texnologiyalarni joriy etish, dala madaniyatini yuksaltirish va ariq-zovurlarni tartibga keltirish bo'yicha aniq topshiriqlar berildi.

Yig'ilishda "Ombor kitobi" tizimi - oziq-ovqat mahsulotlarining kirim-chiqimini doimiy qayd etish orqali zaxiralarni nazorat qilish mexanizmini joriy etish zarurligi ta'kidlandi. Seminarda vazir Paxtachilik kengashi olimlari tomonidan ishlab chiqilgan uslubiy qo'llanmalarga amal qilish, dala maydonlarida xorijiy navlar uchun xo'rak maydonlari, mahalliy navlar uchun esa maxsus himoya zonalarini tashkil etish, shuningdek, tomchilatib sug'orish texnologiyalarini bosqichma-bosqich va tizimli joriy etish yuzasidan tegishli ko'rsatmalar berdi.



Международный бизнес-форум в Джизакской области

Как сообщает ИА “Дунё”, с 23 по 24 апреля в Зааминском районе Джизакской области проходит международный бизнес-форум “Джизак – 2025”.

Мероприятие организовано совместно Министерством иностранных дел Узбекистана и хокимиятом Джизакской области.

На форум приглашено более 200 руководителей компаний из более чем 30 ведущих стран - партнеров. При этом ожидается активное участие представителей дипломатического корпуса в Ташкенте.

Следует отметить, что в последние годы в результате проводимой в нашей стране открытой и последовательной инвестиционной политики экономика демонстрирует стабильный рост. В частности, в 2024 году валовой внут-

ренний продукт увеличился на 6,5%, достигнув 115 миллиардов долларов. Объем иностранных инвестиций увеличился в 1,6 раза, составив почти 35 миллиардов долларов. Реализовано 242 крупных и средних проекта на сумму 10 миллиардов долларов. Объем экспорта нашей страны впервые достиг 27 миллиардов долларов.

В рамках форума пройдут презентации для иностранных участников инвестиционного, торгово-экономического и туристического потенциала Джизакской области.

Как ожидается, бизнес-форум позволит продемонстрировать такие преимущества Джизакской области, как крупные сырьевые запасы, удобная логистическая инфраструктура, богатые природные ресурсы, развивающийся туристический сектор, высокий человеческий капитал, а также послужит укреплению



инвестиционных и торгово-экономических связей региона с зарубежными партнерами. Это также открывает

двери новым направлениям сотрудничества и возможностям для предпринимателей.

В первом квартале 2025 года отмечен рост ВВП Узбекистана

По предварительным данным Национального комитета по статистике, в январе-марте 2025 года Республика Узбекистан демонстрировала устойчивые темпы роста в ключевых секторах экономики.



Рост валового внутреннего продукта (ВВП) составил 6,8%, отражая положительную динамику в экономике страны.

Промышленное производство также показало рост – индекс физического объема достиг 106,5 %. Объем строительных работ увеличился на 10,8 %, что свидетельствует об активной реализации инфраструктурных проектов.

Розничный товарооборот вырос на 9,5 %, а объем оказанных рыночных услуг – на

12,6 %. Сельское, лесное и рыбное хозяйство показали рост на уровне 3,8 %.

Значительные изменения зафиксированы во внешнеторговой деятельности. Внешнеторговый оборот увеличился на 8,6 %, при этом экспорт вырос на 24,4 %, а импорт снизился на 2,3 %.

По состоянию на 1 апреля 2025 года в стране зарегистрировано 442 402 предприятия и организации. Рост объемов грузоперевозок составил 2 %, пассажирских перевозок – 4,3 %.

Реальные доходы населения за указанный период увеличились на 9,8 %, что указывает на повышение уровня благосостояния граждан.

Численность постоянного населения Республики Узбекистан на 1 апреля 2025 года составила 37,7 млн человек.

Обсуждены вопросы испытания, локализации и индустриализации специальных дронов для сельского хозяйства

Министр сельского хозяйства Иброхим Абдурахмонов провёл встречу с основателем компании “Chirana Asia” Василием Шимко.



В ходе встречи были обсуждены вопросы испытания, локализации и индустриализации специальных дронов в сельском хозяйстве Узбекистана.

Во время беседы подробно была изложена работа, которая будет проводиться по адаптации дронов, производимых китайской компанией “Banazen (Shenzhen) Technology Co., LTD”, к агро-экономическим условиям страны.

В частности, особое внимание было уделено созданию сборочных цехов для дронов, организации центров технического обслуживания и учебных классов, а также подготовке специалистов.

Отмечено, что реализация данного проекта создаст прочную основу для вне-



дрения передовых технологий в аграрную сферу, сохранения экологического баланса, эффективного использования ресурсов и, что особенно важно, обеспечения продовольственной безопасности.

В своей речи министр Иброхим Абдурахмонов подчеркнул решительную позицию Узбекистана в этом направлении, а также политическую волю к цифровизации сельского хозяйства и широкому внедрению современных технологий. Он также выразил готовность всесторонне поддерживать эти инициативы в рамках полномочий Министерства сельского хозяйства.

По итогам встречи стороны договорились провести аналитические работы по проекту и наладить взаимное сотрудничество в перспективе.

Встреча с делегацией Королевства Саудовской Аравии

21 апреля текущего года состоялась встреча министра инвестиций, промышленности и торговли Республики Узбекистан Лазиза Кудратова с делегацией Королевства Саудовской Аравии во главе с заместителем министра энергетики Фуадом Моса и вице-президентом Агентства по местному контенту и государственным закупкам Мохаммедом аль-Хахтани.



В ходе встречи стороны обменялись опытом освоения производства продукции, необходимой для промышленных секторов, развития цепочек создания добавленной стоимости, системного расширения промышленной кооперации, увеличения доли локализованной продукции при реализации инвестиционных проектов, модернизации промышленных отраслей.

Достигнута договоренность о развитии системы «местного контента» в Узбекистане на основе опыта Саудовской Аравии.

Для этого совместно с профильными министерствами и ведомствами республики сформированы рабочие группы, которые проведут глубокий анализ текущей ситуации в данных сферах и выработают необходимые стратегии дальнейшего взаимодействия.



Qurilish korxonalarining soliq qarzidorligi

2025 yil 1 aprel holatiga soliq qarzi 100 mln soʻmdan yuqori qurilish korxonalari 1 142 ta, ularning jami qarzi 920,8 mlrd soʻm. Shundan 314,6 mlrd soʻmi, yaʼni 34,2%i soliq qarzi eng yirik boʻlgan 10 ta korxona hisobiga toʻgʻri keladi.

Hududlar kesimida korxonalarning soliq qarzidorligi koʻrsatkichlari – TOP-3:

- Toshkent shahri – 344,8 mlrd soʻm;
- Andijon viloyati – 100,8 mlrd soʻm.
- Buxoro viloyati – 88,7 mlrd soʻm.

2025 yil 1 aprel holatiga eng koʻp soliq qarzi mavjud qurilish sohasi korxonalari

(MLRD SOʻMDA)

Soliq qarzi 100 mln soʻmdan yuqori qurilish korxonalari soni


1 142

Soliq qarzi


920,8

YIRIK SOLIQ TOʻLOVCHILAR BOʻYICHA HSI

13/63,7



HUDUDLAR KESIMIDA SOLIQ QARZI SUMMASI



SOLIQ QARZI ENG YUQORI TOP 10

Top 10 ta korxonaning jami soliq qarzi



1	"RELIABLE STROY INVEST" MChJ Toshkent sh	81,5
2	"AZIYA INVEST FAVORIT" MChJ Toshkent sh	60,9
3	"2-SON QURILISH DIREKSIYASI" MChJ Yirik solik to'lovchilar bo'yicha HSI	43,5
4	"MOHIR-QURUVCHI" MChJ Andijon v.	29
5	"MUSTAHKAM QURILISH DEVELOPMENT" MChJ. Buxoro v.	24,2
6	"ZOMIN ELIT INVEST" MChJ Jizzax v.	22,8
7	"FAYZ DESIGN" MChJ Toshkent sh.	18,5
8	"FAROVON BUILDERS" MChJ Toshkent sh.	12,7
9	"TIMUR WORLD STROY" MChJ Andijon v.	10,9
10	"ALOQA QURILISH 2024" MChJ Andijon v.	10,6

Таъсисчи

Давлат активларини бошқариш агентлиги

“Бизнес-Daily Медиа”
ноширлик уйи МЧЖ

Бош директор в.в.б. Бош муҳаррир
У. ПУЛАТОВ

Мурожаат учун

Тел.:
+998 (99) 353-55-54

E-mail:
biznesdm 2020@gmail.com

Манзил:
100000, Тошкент шаҳри,
Амир Темур кўчаси, 6-уй.

Газета 1994 йил 31 августдан чиқа бошлаган.

2013 йил 12 апрелда Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлигида 0064-сон билан қайта рўйхатдан ўтган.

2025 йилдан бошлаб газета PDF электрон шаклда чиқади. Нашр даврийлиги: ҳафтада икки марта – ҳар сешанба ва пайшанба кунлари. Формат А3 (816x406)

© Biznes Daily “Биржа”дан кўчириб босиш фақат

“Бизнес-Daily Медиа” НУ МЧЖ рухсати билан амалга оширилади.

Газета жамият матбаа бўлимида терилди ва саҳифаланди.

© Biznes Daily “Биржа” оригинал макети.

© Газета текин тарқатилади



telegram
BIZNES DAILY BIRJA